

O'ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

O'zbekiston Respublikasining milliy standartlashtirish tizimi
MILLIY STANDARTLAR
Tuzilishi, bayon etilishi, rasmiylashtirilishi, mazmuni va belgilanishiga qo'yiladigan
umumiy talablar

Rasmiy nashr

O'zbekiston standartlar instituti

Toshkent

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQLDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2024-yil 21 avgustdagi 32/MSt-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu milliy standart ГОСТ 1.5-2001 “Межгосударственная система стандартизации. Стандарты межгосударственные, правила и рекомендации по межгосударственной стандартизации. Общие требования к построению, изложению, оформлению, содержанию и обозначению” davlatlararo standarti bilan uyg‘unlashtirilgan.

4 O‘z DSt 1.6:2023 O‘RNIGA AMALGA KIRITILDI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

Mundarija

1 Qo‘llanish doirasi.....	1
2 Standartlarga havolalar	1
3 Standartlarning tuzilishiga qo‘yiladigan talablar.....	2
3.1 Standartning elementlari.....	2
3.2 Standartlarning titul varag‘i.....	3
3.3 To‘plamning titul varag‘i	3
3.4 So‘zboshi.....	3
3.5 Mundarija.....	5
3.6 Kirish	5
3.7 Nomi.....	5
3.8 Qo‘llanish doirasi.....	8
3.9 Standartlarga havolalar.....	9
3.10 Atamalar va ta’riflar.....	10
3.11 Belgilashlar va qisqartmalar.....	12
3.12 Asosiy qoidalar	12
3.13 Ilovalar.....	12
3.14 Bibliografiya.....	13
3.15 Bibliografik ma’lumotlar.....	14
4 Standartlarni bayon etishga qo‘yiladigan talablar.....	14
4.1 Standartlar matnini bayon etishga qo‘yiladigan umumiy talablar.....	14
4.2 Standartlar matnini bo‘lish.....	15
4.3 Sarlavhalar.....	16
4.4 Sanab o‘tishlar.....	17
4.5 Jadvallar.....	17
4.6 Grafik materiallar.....	27
4.7 Formulalar.....	28
4.8 Havolalar.....	29
4.9 Izohlar.....	34
4.10 Sahifa osti izohi.....	34
4.11 Misollar.....	35
4.12 Qisqartmalar.....	35
4.13 Shartli belgilashlar, tasvirlashlar, belgilar.....	35
4.14 Kattaliklar birliklari.....	36
4.15 Sonli qiymatlar.....	37
5 Standartlarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar.....	38
5.1 Standartlarning matnini rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar.....	38
5.2 Standartlarning betlarini rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar.....	38
5.3 Standartlarni nashr etishga qo‘yiladigan talablar.....	39
6 Standartlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar.....	39
6.1 Asos bo‘luvchi standartlarning mazmuni.....	39
6.2 Standartlarda belgilanadigan mahsulot standartlarining mazmuni.....	40
6.3 Standartlarda belgilanadigan kichik sarlavhali “Umumiy texnik shartlar”ning mazmuni.....	41
6.4 Standartlarda belgilanadigan kichik sarlavhali “Texnik shartlar”ning mazmuni.....	46
6.5 Standartlarda belgilanadigan kichik sarlavhali “Umumiy texnik talablar”ning mazmuni.....	46
6.6 Mahsulotni tamg‘alash, o‘rab-joylash/qadoqlash, transportda tashish va saqlashga qo‘yiladigan talablarni belgilash va ularning mazmuni.....	47
6.7 Xavfsizlik talablarini belgilash va ularning mazmuni.....	49

6.8 Qabul qilish qoidalarini belgilash va ularning mazmuni.....	51
6.9 Nazorat (sinash, aniqlash, o‘lchash, tahlil qilish) usullariga qo‘yiladigan talablarni belgilash va ularning mazmuni.....	52
6.10 Standartlarda belgilanadigan texnologik jarayonlarning mazmuni.....	54
6.11 Standartlarda belgilanadigan xizmatlarning mazmuni.....	56
7 Standartlarning belgilanishiga qo‘yiladigan talablar.....	59
A ilova (normativ) Milliy standart titul varag‘ining shakli.....	61
B ilova (normativ) Dastlabki standart titul varag‘ining shakli	63
C ilova (ma’lumot uchun) Milliy standartlar to‘plamining titul varag‘ini rasmiylashtirish misoli.....	65
D ilova (normativ) Milliy standartlarning birinchi betini shakli.....	66
E ilova (normativ) Milliy standartlar (birinchisidan tashqari) betlarining shakli.....	67
F ilova (tavsiyaviy) Milliy standartlar (birinchi va oxirgisidan tashqari) betlarining shakli.....	68
G ilova (normativ) Standartning oxirgi betini rasmiylashtirish qoidalari.....	69

O'ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

O'zbekiston Respublikasining milliy standartlashtirish tizimi
MILLIY STANDARTLAR
Tuzilishi, bayon etilishi, rasmiylashtirilishi, mazmuni va belgilanishiga qo'yiladigan
umumiy talablar

Национальная система стандартизации Республики Узбекистан
НАЦИОНАЛЬНЫЕ СТАНДАРТЫ
Общие требования к построению, изложению, оформлению,
содержанию и обозначению

National standardization system of the Republic of Uzbekistan
NATIONAL STANDARDS
General requirements for layout, formulation, presentation, contents and names

Amalga kiritish sanasi 04.09.2024

1 Qo'llanish doirasi

Ushbu milliy standart O'zbekiston milliy standartlari va dastlabki standartlar (keyingi o'rinlarda – milliy standartlar)ning tuzilishi, bayon etilishi, rasmiylashtirilishi, mazmuniga, shuningdek standartlarning belgilanishiga qo'yiladigan umumiy talablarni belgilaydi.

Ushbu milliy standart talablari milliy standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlashga tayyorlash, nashr etishda qo'llanilishi kerak.

Dastlabki standartni (DS) ishlab chiqish, tasdiqlashga tayyorlash, nashr etish jarayonlarida ushbu milliy standartlarning 3.2.2, 3.9.3-bandlari va ushbu bandlarga zid bo'lmagan talablari qo'llaniladi.

2 Standartlarga havolalar

Ushbu milliy standartda quyidagi standartlarga qilingan havolalardan foydalanildi:

ГОСТ 7.75-1997 Система стандартов по информации, библиотечному и издательскому делу. Коды наименований языков;

ГОСТ 8.566-2011 Государственная система обеспечения единства измерений. Межгосударственная система данных о физических константах и свойствах веществ и материалов. Основные положения;

ГОСТ 12.1.007-76 Система стандартов безопасности труда. Вредные вещества. Классификация и общие требования безопасности;

ГОСТ 12.1.044-2018 Система стандартов безопасности труда. Пожаровзрывоопасность веществ и материалов. Номенклатура показателей и методы их определения;

Rasmiy nashr

ГОСТ 12.4.026-2015 Система стандартов безопасности труда. Цвета сигнальные, знаки безопасности и разметка сигнальная. Назначение и правила применения. Общие технические требования и характеристики. Методы испытаний;

ГОСТ 14192-96 Маркировка грузов;

ГОСТ 15150-69 Машины, приборы и другие технические изделия. Исполнения для различных климатических районов. Категории, условия эксплуатации, хранения и транспортирования в части воздействия климатических факторов внешней среды;

ГОСТ 19433-3:2010 Грузы опасные. Маркировка;

ГОСТ 21140-88 Тара. Система размеров;

O'zMSSt 1.5 O'zbekiston Respublikasining milliy standartlashtirish tizimi. Standartlarni qayta ko'rib chiqish, o'zgartish va bekor qilish tartibi;

O'z DSt 2.321:1996 Konstruktorlik hujjatlarning yagona tizimi. Harfiy belgilar;

O'z DSt 8.012:2005 O'lchashlar birlikligini ta'minlash davlat tizimi. Fizikaviy kattaliklar birliklari;

O'z DSt 2317:2019 Axborot, kutubxona va nashriyot ishlari bo'yicha standartlar tizimi. Nashrlar. Chiqish ma'lumotlari. Umumiy talablar va bezaklash qoidalari;

O'z DSt 3185:2017 Xalqaro va mintaqaviy standartlarni O'zbekiston davlat standartlari sifatida qabul qilish.

Izoh - Ushbu standartdan foydalanishda Standartlashtirish bo'yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko'rsatkichlariga muvofiq standartlarni O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilinishi tekshirilishi kerak. Agar havola qilingan standart almashtirilgan (o'zgartirilgan) bo'lsa, unda ushbu standartdan foydalanishda almashtirilgan (o'zgartirilgan) standartga amal qilish kerak. Agar havola qilinayotgan standart almashtirilmasdan bekor qilingan bo'lsa, unga havola qilingan qoida ushbu havolaga taalluqli bo'lmagan qismida qo'llaniladi.

3 Standartlarning tuzilishiga qo'yiladigan talablar

3.1 Standartlarning elementlari

3.1.1 Standartlar alohida elementlardan tashkil topadi.

3.1.2 Standartlarga umumiy holda quyidagi elementlar kiritiladi:

- titul varag'i;
- so'zboshi;
- mundarija;
- kirish;
- nomi;
- qo'llanish doirasi;
- standartlarga havolalar;
- atamalar va ta'riflar;
- belgilashlar va qisqartmalar;
- asosiy normativ qoidalar;
- ilovalar;
- bibliografiya;
- bibliografik ma'lumotlar.

Izoh - O'z DSt 2317 ga muvofiq milliy standartlarga nashr haqidagi ma'lumotlar ham kiritiladi.

3.1.3 “Mundarija”, “Kirish”, “Standartlarga havolalar”, “Atamalar va ta’riflar”, “Belgilashlar va qisqartmalar”, “Ilovalar”, “Bibliografiya” elementlari, zarurat bo‘lganda milliy standartlarning mazmuni va bayon etilishining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda keltiriladi.

3.2 Standartlarning titul varag‘i

3.2.1 Milliy standartlarning titul varag‘i ushbu standartning A ilovasiga muvofiq rasmiylashtiriladi.

3.2.2 Dastlabki standartlarning titul varag‘i ushbu standartning B ilovasiga muvofiq rasmiylashtiriladi.

3.3 To‘plamning titul varag‘i

3.3.1 Zarur hollarda bir nechta milliy standartlar mavzusiga ko‘ra to‘plamga jamlab tikilishi mumkin. Bunda unga qo‘shimcha ravishda to‘plamning maxsus titul varag‘i, shuningdek, “to‘plamning mundarijasi” elementi kiritiladi.

3.3.2 To‘plamning titul varag‘ida to‘plamning davlat tilidagi nomi, to‘plamga kiritilgan milliy standartlarning belgilanishi “Rasmiy nashr” so‘zlari keltiriladi.

To‘plamning titul varag‘ini rasmiylashtirish misoli C ilovada keltirilgan.

3.4 So‘zboshi

3.4.1 Milliy standartlarning so‘zboshisida ishlab chiqilayotgan standart haqida umumiy ma’lumotlar keltiriladi.

3.4.2 Milliy standartlarning so‘zboshisida keltiriladigan standart to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar arab raqamlari (1, 2, 3,...va hokazo) bilan belgilanadi va ushbu milliy standartning 3.4.3-bandiga asosan ketma-ketlikda keltiriladi.

3.4.3 Milliy standartlar haqidagi ma’lumotlar:

a) milliy standartlarning ishlab chiqilishi va uning tasdiqlashga taqdim etilishi haqidagi ma’lumotlar:

“1 _____

milliy standart loyihasini ishlab chiqqan standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning (va tashkilot , korxonaning) nomi

_____ texnik qo‘mita mavjud bo‘lmaganda, milliy organning nomi

TOMONIDAN ISHLAB CHIQLDI”.

b) tasdiqlash haqidagi ma’lumotlar:

“2 _____

milliy standartni tasdiqlagan organning to‘liq nomi,

_____ TASDIQLANDI”

_____ tasdiqlash haqidagi hujjatning sanasi va raqami

c) milliy standartlarning xalqaro (mintaqaviy) darajada uyg‘unlashtirilganligi (milliy standartni ishlab chiqishda xalqaro (mintaqaviy), boshqa xorijiy mamlakatning standartini yoki O‘z DSt 3185 ga muvofiq o‘zga o‘xshash hujjat qo‘llanilganligi) haqidagi ma’lumotlar;

d) o‘rniga ushbu standart ishlab chiqilgan standart (standartlar) haqidagi ma’lumotlar:

“3 _____ O‘RNIGA AMALGA
standartning belgilanishi (standartlarning belgilanishi)

KIRITILDI”

yoki

“3 _____ qismi O‘RNIGA AMALGA KIRITILDI”
standartning belgilanishi

yoki milliy standart dastlabki amalga kiritilishi haqidagi ma’lumotlar:

“4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI”

Xalqaro, mintaqaviy yoki xorijiy mamlakatning standarti o‘rniga O‘zbekiston Respublikasi hududida milliy standartlarni amalga kiritishda, ushbu ma’lumotlardan keyin mazkur standart o‘rniga qo‘llanilishi lozim bo‘lgan aniq standart haqida ma’lumot keltiriladi:

“Ushbu standart amalga kirgandan so‘ng

xalqaro, mintaqaviy yoki xorijiy mamlakatning standarti belgilanishi va nomi

O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilishi to‘xtatiladi”;

e) milliy standartni qayta nashr etish haqidagi ma’lumotlar:

“5 QAYTA NASHR ETISH _____”
yil

yoki milliy standartlarni yangidan nashr etish haqidagi ma’lumotlar:

“5 _____dagi _____ O‘ZGARTISH”

o‘zgartishlar bilan nashr etish _____
yil

f) milliy standartlarni ishlab chiqishda qo‘llanilgan patent huquqi obyektlariga tegishli hujjatlar haqidagi ma’lumotlar. Patentlar, patentni berish, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari uchun buyurtmalarning raqamlari va sanasi keltiriladi.

i) milliy standartlarni amalga kiritish, milliy standartlarga bo‘lgan o‘zgartishlar va ularni amalga kiritish, milliy standartlar amal qilish muddatini to‘xtatish, uni qayta ko‘rish yoki bekor qilish haqidagi axborotni, qayta chop etish tartibi haqidagi ma’lumotlar:

“Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi”.

Izoh - Milliy standartni nashr etishda i) sanab o‘tishga muvofiq keltiriladigan ma’lumotlar kursiv bilan ko‘rsatiladi.

3.4.4 Zarurat bo‘lganda, milliy standartning so‘zboshi qismiga ushbu standartning ishlab chiqilishiga oid qo‘shimcha ma’lumotlar kiritilishi mumkin.

3.4.5 “So‘zboshi” titul varag‘idan (uning orqasida) keyingi betda, betning yuqori qismida, o‘rtada joylashtirilgan muvofiq sarlavha bilan boshlanib, bosh harf bilan yoziladi va nashr etishda yarim qora shrift bilan ajratib yoziladi.

3.5 Mundarija

3.5.1 Agar milliy standartlarning hajmi 10 betdan oshadigan bo‘lsa, unga “Mundarija” elementini qo‘shish tavsiya etiladi.

3.5.2 “Mundarija” elementida ushbu standart bo‘limlarining (zarurat bo‘lganda - kichik bo‘limlarining) tartib raqamlari va sarlavhalari, uning ilovalarining belgilanishlari va sarlavhalari keltiriladi. Bunda ko‘rsatilgan elementlarning har birining sarlavhasidan keyin qator nuqtalar qo‘yiladi, keyin esa ushbu element boshlanadigan milliy standart betining raqami keltiriladi.

3.5.3 “Mundarija” elementida kichik bo‘limlarning belgilanishi, bo‘limlarning belgilanishiga nisbatan ikkita belgiga teng bo‘lgan xat boshi chetlanishidan keyin keltiriladi.

3.5.4 “Mundarija” elementida ilovalarning belgilanishidan keyin qavs ichida ularning maqomi (normativ, tavsiyaviy, ma’lumot uchun) ko‘rsatiladi.

3.5.5 “Mundarija” elementi so‘zboshidan keyin yangi betdan boshlab joylashtiriladi. Bunda “Mundarija” so‘zi ushbu betning yuqori qismining o‘rtasida bosh harf bilan yarim qora shrift bilan yoziladi.

3.6 Kirish

3.6.1 Agar milliy standartlarni ishlab chiqish sabablarini asoslab berish, milliy standartlar majmuida ushbu standart o‘rnini ko‘rsatib berish yoki uning boshqa standartlar bilan o‘zaro bog‘liqligining o‘zga shakllari haqida axborot berish, shuningdek foydalanuvchilarning ushbu standartdan foydalanishini yengillashtiruvchi boshqa axborotni keltirish zarurati mavjud bo‘lsa, “Kirish” tarkibiy elementi keltiriladi.

3.6.2 “Kirish” elementi talablarni o‘z ichiga olmasligi kerak.

3.6.3 “Kirish” elementi milliy standartlarning “Mundarija” elementi tamom bo‘lgan betdan keyingi betda (betlarda), u mavjud bo‘lmaganda esa “So‘zboshi” elementi joylashgan betdan keyin keltiriladi. Bunda “Kirish” so‘zi kirish boshlanayotgan betning yuqori qismining ustida katta harf bilan boshlab yoziladi va yarim qora shrift bilan ajratib ko‘rsatiladi.

3.7 Nomi

3.7.1 Milliy standartlarning nomi qisqa bo‘lishi, standartlashtirish obyektini aniq tavsiflashi kerak.

3.7.2 Milliy standartlarning nomi, qoidaga ko‘ra, sarlavha va kichik sarlavhadan tashkil topishi kerak.

Misollar

1 GAZETALAR

Umumiy texnik talablar

2 PISHLOQ

Nitritlar va nitratlarni aniqlash usuli

3.7.3 Agar milliy standartlar asos bo'luvchi, tashkiliy-uslubiy yoki umumtexnik standartlar majmuiga kirsa unda sarlavha oldida majmuining barcha standartlari uchun umumiy bo'lgan va ushbu tizimning nomi bo'lgan guruh nomi keltiriladi.

Misol - Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi

ZARARLI MODDALAR

Atamalar va ta'riflar

Asoslangan hollarda milliy standartlar majmuiga kiruvchi standartning nomi guruh sarlavhasi va kichik sarlavhadan tashkil topishi mumkin.

Misol - Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi

Asosiy qoidalar

3.7.4 Milliy standartlar sarlavhasi bosh harflar bilan bosib yoziladi. Milliy standartlarning guruh sarlavhasi va kichik sarlavhasi birinchi bosh harf bilan boshlab kichik harflar bilan bosib yoziladi.

3.7.5 Milliy standartlar sarlavhasi standartlashtirish obyektini belgilaydi. Sarlavhada ushbu milliy standartlashtirish obyektini boshqa obyektlardan farqlaydigan zarur va yetarli sifatleri keltiriladi.

3.7.6 Agar milliy standartlar bir turdagi mahsulotlar (xizmatlar) guruhiga tegishli bo'lsa, unda uning sarlavhasi O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan mahsulotlar (xizmatlar)ning tasniflagichi bo'yicha muvofiq guruh nomini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

3.7.7 Standartlashtirish obyektini to'liqroq tavsiflash uchun milliy standartlar sarlavhasiga qo'shimcha aniqlashlar kiritiladi. Mazkur aniqlashlar mahsulotni quyidagi sifatleri bo'yicha tavsiflashi mumkin:

- mahsulotlar (xizmatlar)ni ma'lum guruhiga tegishliligi bo'yicha:

Misollar

1 UNIVERSAL YUKLAGICHLAR

2 YUK TASHISH

- ushbu mahsulotni bitta (yoki undan ko'p) ma'lum usul bilan tayyorlash usuli bo'yicha:

Misol - TOBLAB PISHIRILGAN VA QOVURILGAN GO'SHT MAHSULOTLARI

- mahsulot tayyorlangan material bo'yicha:

Misol - BALIQ KONSERVALARI

- shakli, o'lchamlari, massasi, quvvati va shunga o'xshash:

Misol - 01-35 MHz CHASTOTALAR KO'LAMIDAGI O'LCHASH GENERATORLARI

3.7.8 Milliy standartlar sarlavhasi bayon etilganda xususiylikdan umumiylikka prinsipi asosida oldin aniqlovchilar (sifatlar) ahamiyatliligi tartibida keltirilishi kerak, oxirida esa ot so'z turkumi (standartlashtirish obyektining nomi) keltirilishi kerak.

Misollar

1 ELEKTRON QURILMALAR

2 BOSH KIYIMLAR

Atamalar va ta'riflar

3.7.9 Agar milliy standartlar bitta standartlashtirish obyektiga tegishli bo'lsa, unda uning nomi milliy standart sarlavhasida birlik sonda keltiriladi.

Misollar

1 TEXNIK SINTETIK FENOL

2 TUXUM KUKUNI

3.7.10 Agar milliy standartlar bir nomdagi standartlashtirish obyektlarining bir nechtasiga tegishli bo'lsa, unda milliy standart sarlavhasida ularning umumiy nomi ko'plik sonda keltiriladi.

Misollar**1 MUSIQA ASBOBLARI****2 KEKSLAR**

3.7.11 Agar milliy standartlar ikki va undan ko‘p har xil nomli standartlashtirish obyektlariga tegishli bo‘lsa, unda uning sarlavhasi quyidagi tartibda yoziladi:

- milliy standartlarning sarlavhasida oldin sifatlar umumiylikdan xususiylikka bo‘lgan ahamiyatligi tartibida yoziladi, undan keyin “va” bog‘lovchisi bilan ot so‘z turkumi keltiriladi.

Misollar**1 CHARM SUMKALAR, PAPPALAR VA CHAMADONLAR****2 RAQAMLI ELEKTR O‘LCHASH ASBOBLARI VA O‘ZGARTIRGICHLARI**

3.7.13 Bir mahsulot uchun umumiy bo‘lgan ot so‘z turkumidagi nomiga ega bo‘lgan bitta tasniflash guruhiga taalluqli har xil mahsulotlarga tegishli milliy standartlarning sarlavhasida oldin sifatlar vergul orqali yoziladi hamda “va” bog‘lovchisi bilan so‘nggi sifat keltirilib, undan keyin ot so‘z turkumi keltiriladi.

Misol - YASSI, YASHIKLI VA TIRGAKLI TAGLIKLAR

3.7.14 Agar standartlashtirish obyekti bo‘lib butun nomning bir qismi hisoblansa, milliy standartlarning nomida oldin butunning nomi, keyin esa ushbu qismning nomi keltiriladi.

Misol - QALQONLI O‘LCHASH ASBOBLARINING QOBIQLARI

3.7.15 Agar milliy standartlar faqat bitta muayyan xil, marka, modeldagi yoki o‘zga konstruktiv (o‘lchashdagi) bajarilishdagi mahsulotga tegishli bo‘lsa, bunday milliy standartlarning sarlavhasida oldin mahsulot bajarilishining belgilanishidan keyin “markali”, “xilli”, “modelli” so‘zlari undan keyin ot so‘z turkumi keltiriladi.

Misol - NS-11 MARKALI EMALLAR

3.7.16 Milliy standartlar sarlavhasida qisqartmalar, rim raqamlari, matematik belgilar, grek harflarni qo‘llash tavsiya etilmaydi. Mahsulotlarning shartli belgilanishiga kiradigan harfli, raqamli hamda harfli-raqamli qisqartmalarni, kattaliklar birliklari, umumiy tan olingan abbreviaturalar, kodlar va shunga o‘xshashlarni qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

Misollar**1 Nissan X-Trail T31 MARKALI AVTOMOBILLAR****2 1000 V GACHA KUCHLANISHGA EGA BO‘LGAN ELEKTR APPARATLAR****3 O‘YUCH JIHOZLARI**

3.7.17 Milliy standartlarning kichik sarlavhasida milliy standart bilan belgilanayotgan qoidalarning (standartlashtirish aspektining) qisqa umumlashgan mazmuni keltiriladi.

Misollar**1 MARGARIN****Umumiy texnik shartlar****2 YUMSHOQ MEBEL****Mustahkamligini sinash usullari****3 TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI****O‘rab-joylash/qadoqlash, tamg‘alash, transportda tashish va saqlash****4 SHAHAR AVTOBUSLARI****Rangli grafik sxemalariga qo‘yiladigan talablar**

3.7.18 Milliy standartlarning nomi rus va ingliz tillariga tarjima qilinadi va 5.2.1-bandga muvofiq rasmiylashtiriladigan milliy standartlarning birinchi betida keltiriladi. Bu nom bosh harf bilan boshlanib keyingilari kichik harflar bilan bosib yoziladi.

3.7.19 Milliy standartlarning titul varag‘ida va birinchi betida keltiriladigan nomi yarim qora shrift bilan ajratib ko‘rsatiladi.

3.8 Qo‘llanish doirasi

3.8.1 “Qo‘llanish doirasi” elementida milliy standartlarning mo‘ljallanishi va uning tegishlilik doirasi (standartlashtirish obyekti), lozim bo‘lganda, milliy standartlarni qo‘llanish doirasi aniqlashtiriladi.

3.8.2 Milliy standartlarni mo‘ljallanishi va tegishlilik doirasini ko‘rsatishda quyidagi ifodalar qo‘llaniladi: “Ushbu milliy standart ... belgilaydi” yoki “Ushbu milliy standart ... tegishlidir va ... belgilaydi”.

Misollar

1 Ushbu milliy standart maishiy mebellarning o‘tirish uchun funksional o‘lchamlarini belgilaydi.

2 Ushbu milliy standart kiyim o‘lchamini aniqlashda odam tanasini o‘lchashga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

3.8.3 Milliy standartlar nomining sarlavhasida ko‘rsatilgan standartlashtirish obyektni qo‘shimcha aniqlashtirish (aniqlash) zarur bo‘lganda quyidagi ifoda qo‘llaniladi: “Ushbu milliy standart ... ga tegishlidir (tegishli emas)”. Bunda milliy standartlarning taalluqlilik doirasini chegaralash holida sahifa osti izohida yondosh doiraga (standartlashtirish obyektiga) taalluqli milliy standart haqida axborot keltirish tavsiya etiladi.

Misollar

1 Ushbu milliy standart mineral xomashyo, yem achitqilari va paprikadan tashqari o‘simlik yemi, omuxta yem va omuxta yem xomashyosining barcha turlariga taalluqlidir.

2 Ushbu milliy standart sopoldan tayyorlangan mahsulotlarning o‘lchamlariga* tegishli emas.

3 Ushbu milliy standart faqat poliz mahsulotlar uchun tegishlidir.

4 Zarur bo‘lganda milliy standart teplovozlar, tog‘-transporti, yo‘l-qurilishi, yo‘l mashinalari va burg‘ilash qurilmalarining dvigatellariga tegishli bo‘lishi mumkin.

Izoh - Bu yerda va bundan buyon ushbu standartdagi boshqa standartlarga qilingan havolalar ko‘rgazmali hisoblanadi. Ushbu standartlar 2-bo‘limda keltirilgan havola qilingan standartlar ro‘yxatiga kiritilmagan. Ayrim hollarda misollardagi satr osti izohlari ham ko‘rgazmali hisoblanadi. Bu holda satr

3.8.4 Milliy standartlarning qo‘llanish doirasini aniqlashtirishda quyidagi ifodalardan foydalaniladi:

“Ushbu milliy standart ... qo‘llanishga mo‘ljallangan” yoki “Ushbu milliy standart ... da ham qo‘llanilishi mumkin”.

Misollar

1 Ushbu milliy standart qurilish mahsulotlarini sertifikatlashtirish sinovlarini o‘tkazishda qo‘llash uchun mo‘ljallangan.

2 Ushbu milliy standart noto‘qima materiallardan tashqari boshqa texnologiyalar bo‘yicha tayyorlangan materiallar sinovlarida ham qo‘llanilishi mumkin.

3.8.5 Milliy standartlarning mo‘ljallanishi, standartlashtirish obyektni aniqlashni va milliy standartlarning qo‘llanish doirasini aniqlashni bitta gapda birlashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

Misol - Ushbu milliy standart ichimlik suvi ta‘minotining markazlashtirilgan tizimlari bilan tayyorlanayotgan va uzatilayotgan ichimlik suvini taqsimlash tarmog‘iga tushishdan oldin suvning sifatini baholashda amal qilinishi kerak bo‘lgan kichik namunalarni tanlab olishga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

* Sopoldan tayyorlangan mahsulotlarning o‘lchamlariga qo‘yiladigan talablar O‘z DSt 3049 da belgilangan. Satr osti izohi misol ichida (satr osti izohlari uchun belgilangan kabi emas, 4.10.1 ga qaralsin) joylashtiriladi va (misollar uchun belgilangan kabi, 4.11.2 ga qaralsin) kursiv bilan bosib yoziladi.

3.8.6 Milliy standartlarda belgilanadigan umumiy “texnik shartlar” yoki / “texnik shartlar”da ularning mo‘ljallanishi keltirilmaydi, balki milliy standartlarning tegishlilik doirasini (zarur bo‘lganda) aniqlashtirish bilan standartlashtirish obyekti va milliy standartlar matnida uning qisqa yozuvi ko‘rsatiladi.

Misol - Ushbu milliy standart tibbiy va kasbiy ko‘rsatmalar bo‘yicha qo‘llanilishiga muhtoj bo‘lgan bemorlar uchun mo‘ljallangan yumshoq kontakt linzalariga tegishlidir. Ushbu milliy standart bo‘yalgan, shu jumladan pardoz uchun mo‘ljallangan linzalarga tegishli emas.

3.8.7 “Qo‘llanish doirasi” elementi 1-bo‘lim deb belgilanadi va milliy standartlarning birinchi betida joylashtiriladi.

3.9 Standartlarga havolalar

3.9.1 Agarda milliy standartlar matnida xuddi o‘sha darajadagi standartlarga havolalar (havola) berilgan bo‘lsa “Standartlarga havolalar (havola)” elementi keltiriladi.

3.9.2 “Standartlarga havolalar” elementi 2-bo‘lim ko‘rinishida rasmiylashtiriladi. Unda quyidagi ketma-ketlikda bayon etilgan havola qilingan standartlar ro‘yxati keltiriladi:

O‘zbekiston milliy standartlarida:

- aynan bir xil O‘zbekiston milliy standartlari sifatida qabul qilingan xalqaro standartlar;
- O‘zbekiston hududida qabul qilingan mintaqaviy standartlar;
- O‘zbekiston milliy standartlari.

O‘zbekiston milliy standartida dastlabki standartlarga normativ havolalar berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.9.3 Dastlabki standartda boshqa dastlabki standartga qilingan normativ havolaga ruxsat etiladi, faqat bunda havola qilinayotgan dastlabki standartning amal qilish muddatining tugash sanasi havolada ko‘rsatilgan dastlabki standartning amal qilish muddati tugashi sanasidan oldin bo‘lmasligi lozim.

3.9.4 Havolalar qilinadigan standartlar ro‘yxati quyidagi so‘zlar bilan boshlanadi: “Ushbu milliy standartda quyidagi standartlarga qilingan havolalardan foydalanildi Ushbu standartda quyidagi standartlarga qilingan havolalardan foydalanildi”.

3.9.5 Havolalar qilingan standartlar ro‘yxatida, ushbu standartlarni har bir toifasi uchun belgilanishlarning ro‘yxatga olish raqamlarini oshirib borish tartibida, 3.9.2-bandda ko‘rsatilgan ketma-ketlikda joylashtirilib, ularni tasdiqlangan (qabul qilingan) yilning raqamlari va nomlari bilan hujjatlarning to‘liq belgilanishi keltiriladi.

Havolalar qilingan standartlar ro‘yxatida mintaqaviy (davlatlararo) standartning belgilanishi ostida keltiriladigan xalqaro standartning belgilanishi ushbu xalqaro standart bilan aynan bir xil bo‘lgan hollarda ko‘rsatiladi.

3.9.6 Havola qilinayotgan standartlar ro‘yxatidan keyin quyidagi axborotni o‘z ichiga olgan izoh keltiriladi: *“Ushbu standartdan foydalanishda Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlariga muvofiq standartlarning O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilishi tekshirilishi kerak. Agar havola qilingan standart almashtirilgan (o‘zgartirilgan) bo‘lsa, unda ushbu standartdan foydalanishda almashtirilgan (o‘zgartirilgan) standartga amal qilish kerak. Agar havola qilinayotgan standart almashtirilmasdan bekor qilingan bo‘lsa, unga havola qilingan qoida ushbu havolaga taalluqli bo‘lmagan qismida qo‘llaniladi.”.*

3.9.7 “Standartlarga havolalar” elementiga amaldagi standartlar haqidagi axborot kiritiladi.

Milliy standartlar loyihasida havola qilinadigan standartlar ro‘yxatiga, amalga kiritilishining bir vaqtdaligi to‘la ta‘minlangan holda, ishlab chiqilayotgan milliy standartlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan standartlar loyihalarini kiritishga yo‘l qo‘yiladi.

3.10 Atamalar va ta‘riflar

3.10.1 Milliy standartlarda “Atamalar va ta‘riflar” bo‘limi oldin standartlashtirilmagan atamalarni aniqlash yo‘li bilan yoki ushbu standartlashtirilgan atamalar mazkur milliy standartda tor ma‘noda berilgan bo‘lsa, ularni oydinlashtirish yo‘li bilan ushbu standartning turli foydalanuvchilari o‘rtasida o‘zaro tushunishlikni atamashunoslik jihatdan ta‘minlash zarurligida keltiriladi.

Milliy standartlarda foydalaniladigan atamalar va ta‘riflar turlicha izohlash imkoniyatini istisno etadigan, agar mavjud bo‘lsa, ularning qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma‘nosiga muvofiq yagona shaklda qo‘llaniladi.

Izoh - Atamalar va ta‘riflar standartida belgilangan atama standartlashtirilgan deb hisoblanadi.

3.10.2 “Atamalar va ta‘riflar” elementi bir nomli bo‘lim sifatida rasmiylashtiriladi hamda ushbu so‘zlar bilan boshlanadi “Ushbu milliy standartda quyidagi atamalar hamda ularning tegishli ta‘riflari qo‘llanilgan”.

3.10.3 Ta‘riflar maqbul ravishda qisqa bo‘lishi kerak. Bunda qo‘shimcha tushuntirishlar izohlarda keltiriladi.

3.10.4 Har bir atamashunoslik maqolasiga standartning “Atamalar va ta‘riflar” bo‘limining raqami (3 yoki 2-bo‘lim) va undan nuqta bilan ajratilgan ushbu bo‘limdagi maqolani tartib raqamidan tashkil topgan raqam beriladi. Har bir maqoladan keyin nuqta qo‘yiladi.

Atama kichik harf* bilan, ta‘rifi esa bosh harf bilan yoziladi. Atama ta‘rifidan ikki nuqta bilan ajratiladi. Abbreviatura bilan ifodalangan atamaning qisqa shakli bevosita atamadan keyin, undan nuqta vergul bilan ajratib keltiriladi. Ayrim hollarda atamaning qisqa shaklini yozish uchun, atamaning tushirib qoldiriladigan qismi qavs ichiga kiritiladi.

*Misollar**

1 kichik gidroenergetik qurilma; KGEQ: Nominal quvvati 10000 kW gacha bo‘lgan gidroenergetik qurilma.

2 uzatuvchi moslama (bank himoya vositasining): Mijoz va bank xodimlari o‘rtasida bank boylklari bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan o‘qqa chidamli bank himoya vositasi konstruksiyasining elementi.

3.10.5 Zarurat bo‘lganda atamashunoslik maqolasiga atamalarning ingliz, fransuz va nemis (ayrim hollarda - ispan va o‘zga) tillaridagi muqobillari kiritilib, ular belgilanayotgan atama va uning ta‘rifidan o‘ng tomonda alohida ustunda keltiriladi.

Atamaning o‘zga tildagi muqobillari tillarning kodlari bilan quyidagi tartibda joylashtiriladi:

de - nemis;

en - ingliz;

es - ispan;

* Atamaning bosh harf bilan yozilishi zarurati u ifodalayotgan tushunchaning yozilishi bilan belgilanadigan hollardan tashqari.

fr - fransuz.

Izoh - O‘zga tillarning kodlarini nomlari - FOCT 7.75 bo‘yicha.

Agar atamashunoslik maqolasiga atamaning faqat ingliz tilidagi muqobilini kiritish maqsadga muvofiq bo‘lsa, unda uni atamadan keyin qavs ichida, tilning kodini ko‘rsatmagan holda, keltiriladi.

Misollar*

1 tamg‘alash: O‘ramiga va (yoki) mahsulotga	de - markieren
tamg‘asini qo‘yish	en - marking
	fr - markuage

2 atrof-muhit (environment): Tashkilot, jumladan havo, suv, yer, tabiiy resurslar, flora, fauna, odam va ular o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatayotgan tashqi muhit.

3.10.6 Atamashunoslik maqolalari “umumiylikdan-xususiylikka” va (yoki) “aniqlovchidan-aniqlanuvchiga” (agarda bu bog‘lanishni aniqlash mumkin bo‘lsa) ketma-ketlikda, atamalar ifodalaydigan tushunchalar orasidagi aniqlangan bog‘lanishlarga muvofiq joylashtiriladi. Qolgan hollarda atamashunoslik maqolalari atamalarning milliy standartlar matnida qo‘llanilishi tartibida yoki (milliy standartlar hajmi 10 betdan ortiq bo‘lganda) alifbo tartibida joylashtiriladi.

3.10.7 Milliy standartlarda atamashunoslik maqolasini rasmiylashtirishda atamalar (shu jumladan ularning 3.10.4-bandda qavs ichida keltirilgan, tushirib qoldiriladigan qismlari ham) yarim qora shrift bilan, atamalarning abbreviaturalar bilan ifodalangan qisqa shakllari va o‘zga tildagi muqobillari (shu jumladan qavs ichida keltirilganlari) esa ochroq shrift bilan ajratib ko‘rsatiladi.

3.10.8 Agarda milliy standartda standartlashtirilgan atamalar qo‘llanilgan bo‘lsa, muvofiq atamalar va ta’riflar standartiga (standartlariga) 4.8.3.2-bandga muvofiq standartga havola keltiriladi. Bu havola quyidagi joylardan birida keltiriladi:

- standartlashtirilgan atamaning milliy standartda birinchi bor aytib o‘tilishining sahifa osti izohida;

- bitta atamalar va ta’riflar standartida belgilangan ikki va undan ortiq standartlashtirilgan atamalar birinchi bor aytib o‘tilayotgan xat boshining izohida;

- “Atamalar va ta’riflar” bo‘limida, agar bu bo‘limni milliy standartlarga kiritish standartlashtirilmagan atamalarni milliy standartlarda belgilash zarurati bilan shartlangan bo‘lsa.

Standartlashtirilgan atamalar belgilangan standartlarga havolalar qilishda quyidagi ifoda qo‘llaniladi: “Ushbu atamaning ta’rifi _____ da

standartning belgilanishi

belgilangan” yoki “Ushbu standartda _____

standartning belgilanishi

bo‘yicha atamalar qo‘llaniladi”, agarda milliy standartlarda “Atamalar va ta’riflar” bo‘limi mavjud bo‘lsa u “Ushbu milliy standartda _____

standartning belgilanishi

bo‘yicha atamalar, shuningdek quyidagi atamalar va ularga muvofiq ta’riflari qo‘llanilgan:” so‘zlari bilan boshlanadi.

3.10.9 Zarurat bo‘lganda milliy standartlarda, boshqa standartlarda belgilangan atamaning

* Berilgan misollarda 4.11.2-bandga muvofiq milliy standartlarda misollar ajratib ko‘rsatiladigan kursiv (atamashunoslik maqolalarini tasvirlash maqsadga muvofiqligiga bog‘liq holda) qo‘llanilmadi.

ta'rifini takrorlashga yo'l qo'yiladi. Bunda standartning 4.8.4-bandida ko'rsatilgan talablarga rioya qilinadi.

3.11 Belgilanishlar va qisqartmalar

3.11.1 Agar milliy standartlarda ko'p sonli (beshtadan ko'p) belgilashlar va/yoki qisqartmalarni qo'llash kerak bo'lsa, unda ularni belgilash uchun milliy standartlarning quyidagi maxsus tarkibiy elementlaridan biri: "Belgilanishlar va qisqartmalar", "Belgilanishlar", "Qisqartmalar" qo'llaniladi hamda ushbu standartning alohida bir nomli bo'limi ko'rinishida keltiriladi. Milliy standartlarning ushbu bo'limida ushbu standartda qo'llaniladigan belgilashlar va qisqartmalar belgilanadi hamda ularning yoyilmasi va/yoki zarur bo'lganda tushuntirishlar keltiriladi. Ushbu standartda belgilanishlar va qisqartmalar ro'yxati, ularni ushbu ro'yxatdan qidirib topish qulayligidan kelib chiqqan holda alifbo tartibida yoki ularni milliy standartlar matnida birinchi bor tilga olish tartibida tuziladi.

3.11.2 Milliy standartlarda "Atamalar va ta'riflar" va "Belgilanishlar va qisqartmalar" ("Belgilanishlar", "Qisqartmalar") elementlarini "Atamalar, ta'riflar, belgilanishlar va qisqartmalar" ("Atamalar, ta'riflar va belgilanishlar", "Atamalar, ta'riflar va qisqartmalar") bitta bo'limga birlashtirishga yo'l qo'yiladi.

Izoh - Agar ushbu standartda qo'llaniladigan barcha belgilanishlar va qisqartmalar unda keltirilgan atamalarga tegishli bo'lsa, unda muvofiq bo'lim "Atamalar va ta'riflar" deb nomlanadi va 3.10-bandga binoan rasmiylashtiriladi.

3.12 Asosiy normativ qoidalar

3.12.1 Milliy standartlarning asosiy normativ qoidalari standartlashtirish obyekti va aspektining o'ziga xos xususiyatlaridan, milliy standartlarning turidan kelib chiqqan holda, tarkibi va mazmuni ushbu standartning 6 - bo'lim talablarini hisobga olgan holda, xalqaro (mintaqaviy) standartni qo'llanishida esa - O'z DSt 3185 talablarini hisobga olgan holda belgilanadigan bo'limlar ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

3.12.2 Milliy standartlarning asosiy normativ qoidalarini o'z ichiga olgan bo'limlarini bayon etilishi ushbu standartning 4 - bo'limi talablariga muvofiq, milliy standartlarda xalqaro (mintaqaviy) standartning qo'llanishida esa - shuningdek O'z DSt 3185 talablarini hisobga olgan holda bajariladi.

3.13 Ilovalar

3.13.1 Milliy standartlarning asosiy qoidalarini to'ldiruvchi material ilovalar ko'rinishida keltiriladi. Ilovalarda hajmi va (yoki) shakli katta bo'lgan grafik materiallar, katta shakldagi jadvallar, hisoblash usullari, apparatura va asboblarning bayonini, EHM da yechiladigan algoritmlar va masalalar dasturlarining bayonlarini keltirish maqsadga muvofiq.

Izoh - Milliy standartning asosiy qismi - uning mazmunini tashkil etuvchi qoidalar majmui.

3.13.2 Maqomi bo'yicha ilovalar normativ, tavsiyaviy yoki ma'lumot uchun bo'lishi mumkin.

3.13.3 Milliy standartlarning ilovalari “Ilova” so‘zidan keyin keltiriladigan lotin alifbosining A harfidan boshlab bosh harflari (I va O harfidan tashqari) bilan belgilanadi. Lotin alifbosining harflari to‘liq ishlatilib bo‘lgan holda ilovalar arab raqamlari bilan belgilanadi.

Agar milliy standartlarda bitta ilova bo‘lsa, unga “A” belgilanish beriladi.

3.13.4 Har bir ilova yangi betdan boshlanadi. Bunda milliy standartlar betining yuqori qismida, o‘rtasida oldin ilovaning belgilanishi va “ilova” so‘zi kichik harf bilan yoziladi, uning ostida esa, qavs ichida, “normativ”, “tavsiyaviy”, “ma’lumot uchun” so‘zlari bilan ilovaning maqomi ko‘rsatiladi.

3.13.5 Ilovaning mazmuni uning sarlavhasida keltiriladi va uni matnga simmetrik joylashtirib, bosh harf bilan boshlab alohida qator (yoki qatorlarda) keltiriladi, keyingilari kichik harf bilan yoziladi.

3.13.6 Milliy standartlardan foydalanish qulay bo‘lishi uchun uning ilovasida u milliy standartning qaysi tarkibiy elementini to‘ldirishi haqida axborot keltirilishi mumkin. Bu axborot ilovaning sarlavhasidan keyin qavs ichida yoki ilovaning matn osti izohida keltirilishi mumkin.

3.13.7 Ilovalar milliy standartlarning asosiy qismlari bilan birga betlarining biridan biriga o‘tadigan raqamlashiga ega bo‘lishi kerak.

3.13.8 Milliy standartlar matnida barcha ilovalarga havolalar berilgan bo‘lishi kerak.

3.13.9 Ilovalar milliy standartlar matnida ularga havolalar berish tartibida joylashtiriladi hamda ushbu standartning 4-bo‘limi talablariga muvofiq bayon etiladi.

3.13.10 Milliy standartlarda ilova, 3.13.4-bandda keltirilgan yozuvdan tashqari, kichraytirilgan o‘lchamdagi shrift bilan ajratib ko‘rsatiladi.

3.14 Bibliografiya

3.14.1 Agar standartlarda ushbu standartning 4.8.5-bandiga muvofiq havolalar berilgan bo‘lsa, unda ushbu standartga barcha ilovalardan keyin bibliografik ma’lumotlari bo‘lgan varaqdan oldin “Bibliografiya” qo‘shimcha elementi kiritiladi.

3.14.2 “Bibliografiya” elementiga 4.8.5-bandda ko‘rsatilgan havola qilingan hujjatlarning ro‘yxati kiritiladi hamda u hujjatlarni standartlar matnida va uning ilovalarida keltirish tartibida kvadrat qavslar ichida keltirilgan havola qilinadigan hujjatlarning raqamlanishiga binoan tuziladi.

3.14.3 Bibliografiyada havola qilingan hujjatning raqamidan keyin muvofiq ro‘yxatda hujjatning maqomi (texnik reglamentlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normalarlari, respublika hududida amalda bo‘lmagan xalqaro (mintaqaviy) va xorijiy mamlakatlarning standartlari, ekologik normativ va shu kabilar), uning to‘liq belgilanishi (tasdiqlangan va qabul qilingan yilining raqamlari bilan) va nomi ko‘rsatiladi.

Havola qilinayotgan hujjatlarning ro‘yxatiga xalqaro (mintaqaviy), xorijiy mamlakatning standarti yoki o‘xshash hujjat kiritilganda, davlat tilida, zarur hollarda boshqa tillarda keltirilgan ma’lumotlardan keyin qavs ichida hujjatning asli yozilgan tilida muvofiq ma’lumotlar keltiriladi.

3.14.4 Agar havola qilingan hujjatning maqomi uning nomidan kelib chiqsa, va/yoki uning belgilanishi mavjud bo‘lmasa, unda muvofiq ro‘yxatda hujjatning nomidan keyin kichik qavs ichida ushbu hujjatni tasdiqlagan (qabul qilgan) organ va uning tasdiqlangan (qabul qilingan) sanasi ko‘rsatiladi.

Misol* -

[1] Shaharsozlik normalari va qoidalari

ShNQ 2.01.01-22

Bibliografiya

Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik ma’lumotlar

3.15 Bibliografik ma’lumotlar

3.15.1 Bibliografik ma’lumotlar standartlarning oxiridan oldingi betida keltiriladi.

3.15.2 Standartlarning bibliografik ma’lumotlariga:

- mahsulotning umumdavlat tasniflagichi kodi (MUT);
- standartlarni nashr etishga tayyorlashda belgilangan tartibda qo‘yiladigan standartning umumdavlat tasniflagichi guruhi (SUT);
- muhim so‘zlar kiritilishi kerak.

Misollar

1 Qandolatchilik mahsulotlari uchun bibliografik ma’lumotlarga quyidagilar kiritiladi:

“SUT 67.060

Muhim so‘zlar: qandolatchilik mahsulotlari, tasniflash, qalinligi, sezgi organlariga oid va mikrobiologik ko‘rsatkichlari, xom ashyoga bo‘lgan talablar, o‘rab-joylash/qadoqlash, tamg‘alash, qabul qilish, sinash usullari, transportda tashish, saqlash”.

4 Standartlarni bayon etishga qo‘yiladigan talablar

4.1 Standartlar matnini bayon etishga qo‘yiladigan umumiy talablar

4.1.1 Standartlar mazmunining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq holda, uning qoidalari matn, jadvallar, grafik material (rasmlar, sxemalar, diagrammalar) yoki ularning birikmalari ko‘rinishida bayon etiladi.

4.1.2 Standartlar matni (imkoniyati boricha) qisqa, har xil talqin qilishga yo‘l qo‘ymaydigan aniq, mantiqan izchil, milliy standartlarni qo‘llanish doirasiga muvofiq qo‘llanilishi uchun kerakli va yetarli bo‘lishi kerak.

Standartlarga:

- faqat obyektiv usullar bilan tekshirilishi mumkin bo‘lgan talablar;
- ushbu usullarni aniq belgilovchi sinash usullari va uslubiyotlar;
- standartlashtirish obyekti haqida, uning bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan obyektlar (faoliyatning yondosh turlari)* haqidagi axborotlari mavjud bo‘lgan ma’lumotlar kiritilishi kerak.

4.1.3 Standartlarda, atamalari ushbu standartda (atamalar va ta’riflar standartlarida belgilangan) keltirilgan atamalar qo‘llaniladi.

4.1.4 Talablarni bayon etishda standartlar matnida “kerak”, “lozim”, “lozim bo‘ladi”, “zarur”, “talab etiladi”, “faqat ... ruxsat etiladi”, “yo‘l qo‘yilmaydi, taqiqlanadi”, “kerak emas”, “lozim emas”, “lozim bo‘lmaydi”, “bo‘lishi mumkin emas” va shunga o‘xshash so‘zlar qo‘llanilishi mumkin.

Standartlarda kattaliklarning eng katta va eng kichik qiymatlariga talablar keltirilganda: “dan ko‘p (kam) bo‘lmasligi kerak” yoki “dan oshmasligi kerak” so‘zlar birikmasi qo‘llanilishi kerak.

Misol - Texnik kalsinatsiyalangan sodadagi karbonat angidridli natriyning massaviy ulushi 99,4 % dan kam bo‘lmasligi kerak.

Standartlarda talablardan chetlanishga yo‘l qo‘yadigan qoidalarni bayon etishda “bo‘lishi mumkin”, “qoidaga ko‘ra”, “odatda”, “zarurat bo‘lganda”, “yo‘l qo‘yiladi”, “ruxsat etiladi” va shunga o‘xshash so‘zlar qo‘llaniladi.

* Ko‘rsatilgan ma’lumotlar zarur bo‘lgan holda keltiriladi.

Milliy standartlarda tavsiyalarni bayon etishda “tavsiya etiladi”, “tavsiya etilmaydi”, “maqsadga muvofiq”, “maqsadga muvofiq emas” va shunga o‘xshash so‘zlar qo‘llaniladi.

4.1.5 Standartlarda:

- so‘zlashuv nutqining iboralari;
- bitta xuddi o‘sha tushuncha uchun turli ilmiy-texnikaviy atamalar, ma’nosi bo‘yicha yaqin (sinonimlar)ni, shuningdek, davlat tilida teng ma’noli so‘zlar bo‘la turib o‘zga tildagi so‘zlarni;

- eskirgan hamda ko‘p ma’noni anglatadigan so‘zlar va iboralar;

- ixtiyoriy so‘z birikmalarini qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.1.6 Standartlar matnida, formula, jadval va rasmlardan tashqari:

- kattaliklarning manfiy qiymatlari oldiga matematik belgisini qo‘yish (“minus” so‘zini yozish lozim);

- diametрни belgilash uchun “Ø” belgisini qo‘yish (“diametr” so‘zini yozish lozim);

- sonli qiymatlari bo‘lmagan kattaliklarning matematik belgilari, misol uchun: “>” (katta), “<” (kichik), “=” (teng), “≥” (katta yoki teng), “≤” (kichik yoki teng), “≠” (teng emas), shuningdek, “№” (raqam) belgilarini qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.1.7 Mahsulotni tayyorlash (ishlarni bajarish) uchun belgilanadigan ko‘rsatkichlarning berilgan aniqliqdagi sonli qiymatlari, odatda, O‘z DSt 8.012 talablarini hisobga olgan holda chegaraviy qiymatlari bilan birga keltiriladi yoki eng katta va (yoki) eng kichik qiymatlar ko‘rinishida ko‘rsatiladi.

Ko‘rsatkich og‘ishlarini chegaraviy (yo‘l qo‘yiladigan) qiymatlari:

- 4.15.5-bandda ko‘rsatilganidek matnda nominallari bilan birga;

- 4.5.15-bandda ko‘rsatilganidek, jadvalda;

- alohida talab ko‘rinishida keltirilishi mumkin.

Misol - Bitta o‘ram birligi sof massasining nominalidan yo‘l qo‘yiladigan og‘ishi quyidagilardan oshmasligi kerak:

- massasi 50 g gacha va unga teng bo‘lganda ... minus 8 %;

- massasi 50 g dan ortiq bo‘lganda ... minus 5 %.

Krekerni bevosita yashiklarga o‘rab joylaganda nominal sof massasidan kichik tomonga 0,5 % og‘ishiga yo‘l qo‘yiladi.

Nominal sof massasidan katta tomonga og‘ish cheklanmaydi.

4.1.8 Standartlarda fizik konstantalar hamda moddalar va materiallar xossalari haqidagi ma’lumotlarni keltirishda GOCT 8.566 bo‘yicha ushbu ma’lumotlarning toifalari keltiriladi.

4.2 Standartlar matnini bo‘lish

4.2.1 Standartlarning asosiy matn qismi bo‘limlar, kichik bo‘limlar, bandlar, kichik bandlar tarkibiy elementlariga bo‘linadi. Bo‘limlar bandlarga yoki muvofiq bandlari bo‘lgan kichik bo‘limlarga bo‘linishi mumkin. Zarurat bo‘lganda bandlar, kichik bandlarga bo‘linishi mumkin.

Izoh - Standartlarning asosiy qismi titul varag‘i, mundarija, kirish, ilovalar, bibliografiya va bibliografik ma’lumotlardan tashqari uning barcha elementlarini o‘z ichiga oladi.

4.2.1.1 Standartlar matnini bandlarga va kichik bandlarga bo‘lishda har bir band va kichik band milliy standartning alohida qoidasini tashkil etishi, ya’ni tugallangan mantiqiy birligini o‘z ichiga olishi zarur.

4.2.1.2 Bo‘limlar, kichik bo‘limlar, bandlar va kichik bandlar arab raqamlari bilan raqamlanadi.

4.2.1.3 Bo‘limlar, milliy standartlar asosiy qismining butun matni doirasida tartib raqamlariga ega bo‘lishi kerak.

Misol - 1, 2, 3 va shunga o‘xshash.

4.2.1.4 Kichik bo‘lim raqami nuqtalar (nuqta) bilan ajratilgan bo‘lim va kichik bo‘lim raqamini, bandning raqami esa - bo‘lim, kichik bo‘lim va bandning (yoki bo‘lim va bandning) raqamini o‘z ichiga oladi.

Misollar

1 1.1.1; 1.1.2; 1.2.1; 1.2.2 va shunga o‘xshash.

2 1.1; 1.2; 1.3 va shunga o‘xshash.

4.2.1.5 Kichik band raqami nuqtalar bilan ajratilgan bo‘lim, kichik bo‘lim (mavjud bo‘lsa), band va kichik band raqamini o‘z ichiga oladi.

Misol - 1.1.1.1; 1.1.1.2; 1.1.1.3 va shunga o‘xshash.

4.2.1.6 Standartlarning tarkibiy elementlari raqamlanishidagi raqamlar soni to‘rttadan oshmasligi kerak.

4.2.1.7 Bo‘lim, kichik bo‘lim, band va kichik band raqamidan keyin nuqta qo‘yilmaydi, ammo standartlar matnidani oraliq bilan ajratib qo‘yiladi.

4.2.1.8 Agar standartlar matnining asosiy qismi kichik bandlarga bo‘lingan bo‘lsa, unda matni yanada bo‘lish uchun xat boshilaridan foydalaniladi hamda ular raqamlanmasdan xat boshining chetlanishi (5.3.1-bandga qaralsin) bilan ajratib ko‘rsatiladi.

4.2.2 Ilova matni har bir ilova doirasida raqamlanadigan bo‘lim, kichik bo‘lim, band, kichik bandlarga bo‘linishi mumkin. Ularning raqamlari oldiga ushbu ilovaning belgilanishi qo‘yiladi va raqamdan nuqta bilan ajratiladi.

Misollar

1 A.1; A.2; A.3 va shunga o‘xshash.

2 V.1.1; V.1.2; V.2.1 va shunga o‘xshash.

4.2.3 Agar standartlarning bo‘limi yoki kichik bo‘limi yoki uning ilovasida bitta band bo‘lsa, unda uni raqamlash shart emas.

4.2.4 Agar standartlarning bo‘limi yoki kichik bo‘limi bandlarga bo‘lingan bo‘lsa, bu bo‘lim (kichik bo‘lim) birinchi banddan oldin keluvchi matnning kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, bunday matnning kiritilishi xalqaro (mintaqaviy) standartning qo‘llanilishi bilan bog‘liq hollar bundan mustasno.

4.3 Sarlavhalar

4.3.1 Standartlarning bo‘limlari va kichik bo‘limlari uchun sarlavhalar qo‘llaniladi.

Bandlar uchun, odatda, sarlavhalar qo‘llanilmaydi. Agar standartlarning kichik bo‘limida kichik band yoki xat boshilarga bo‘lingan beshtadan ortiq bandlari bo‘lsa, ularni milliy standartlar matnida ajratib ko‘rsatish uchun bandlarning sarlavhalari qo‘llaniladi. Bunda ushbu kichik bo‘limga kiritilgan barcha bandlar uchun sarlavhalar keltiriladi.

4.3.2 Sarlavhalar muvofiq bo‘lim, kichik bo‘lim va bandlarning mazmunini aniq va qisqa aks ettirishi kerak.

4.3.3 Bo‘lim (kichik bo‘lim yoki band) sarlavhasini raqamdan oraliq bilan ajratib, bosh harf bilan boshlab oxirida nuqta qo‘ymasdan hamda tagiga chizmasdan bosib yozish kerak. Bunda bo‘lim (kichik bo‘lim yoki band) raqamini 5.1.3-bandga muvofiq shakllantiriladigan xat boshi chetlanishidan so‘ng bosib yozish kerak.

4.3.4 Sarlavhalarda (umumiy tan olingan abbreviaturalar, mahsulotning shartli belgilanishiga kiruvchi kattaliklar birliklari va qisqartmalardan tashqari), qisqartmalarni qo'llamaslik lozim.

Sarlavhada so'zni keyingi qatorga olib o'tish, rim raqamlarini, matematik belgilarni va grek harflarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

4.3.5 Agar sarlavha ikkita gapdan tashkil topgan bo'lsa, ular nuqta bilan ajratiladi.

4.3.6 Standartlarning bo'lim, kichik bo'lim, bandlarining sarlavhalari yarim qora shrift bilan ajratib ko'rsatiladi. Bunda bo'limlarning sarlavhalari (bandlarining sarlavhalari bo'lgan holda kichik bo'limlarning sarlavhalari ham) kattalashtirilgan o'lchamdagi shrift bilan ajratib ko'rsatiladi.

4.4 Sanab o'tishlar

4.4.1 Standartlar matnida (qoidaga ko'ra bandlar yoki kichik bandlar ichida) sanab o'tishlar keltirilgan bo'lishi mumkin.

4.4.2 Sanab o'tishlar matnda faqat birinchi satrda qo'llaniladigan xat boshining chetlanishi bilan ajratib ko'rsatiladi.

4.4.3 Sanab o'tishning har bir pozitsiyasi oldiga defis qo'yiladi.

4.4.4 Agar standartlar matnida bitta yoki bir nechta sanab o'tishlarga havola qilish kerak bo'lsa, har bir pozitsiya oldiga defis o'rniga alfavit tartibida lotin alifbosini harfi, undan keyin qavs qo'yiladi.

4.4.5 Sanab o'tishni yanada batafsil qilish uchun arab raqamlarini qo'llab, ularni harflar bilan belgilangan sanab o'tishlardan o'ng tomonga ikki belgiga siljitib keltiriladi.

Misol - Barcha tibbiy buyumlar uchun quyidagi qo'shimcha talablar belgilangan:

a) atrof-muhitni quyidagi hollarda amalga oshiriladigan tekshiruvini o'tkazish:

1) zararsizlanmagan buyumlarni yetkazib berishda;

2) foydalanish oldidan zararsizlanadigan, zararsizlanmagan buyumlarni yetkazib berishda;

3) buyumlarni ishlatishda mikrobiologik va (yoki) mikrobiologik tozaligi ahamiyatga ega

bo'lganda;

b) yetkazib beruvchi tomonidan quyidagi buyumlarni tozaligiga qo'yiladigan talablarni belgilash va ularga rioya qilishda:

1) zararsizlantirilishi va (yoki) foydalanilishi oldidan dastlab tozalangan;

2) zararsizlantirilmasdan yetkazib beriladigan, ammo zararsizlantirish oldidan tozalanishi

lozim bo'lgan;

3) zararsizlantirilmasdan foydalanilishi mo'ljallangan;

c) yetkazib beruvchi tomonidan buyum sifatiga ta'sir etish mumkin bo'lgan xizmat ko'rsatish bo'yicha talablarni belgilash.

4.5 Jadvallar

4.5.1 Ko'rsatkichlar (parametr, o'lchamlar va shu kabilar) sonli qiymatlarining yaqqolligi va taqqoslash qulayligi uchun jadvallar qo'llaniladi.

Agar har xil ko'rsatkichlar qandaydir umumiy alomati (misol uchun, fizik- kimyoviy ko'rsatkichlar) bo'yicha guruhlanishi mumkin bo'lsa, ko'rsatkichlarning har biri esa ikki (yoki undan ko'p) qiymatlarga ega bo'lishi mumkin bo'lsa jadval shaklini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

_____-jadval - _____ raqami jadvalning nomi	_____-jadval - _____ raqami jadvalning nomi																
<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">α</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">β</td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">3° 5' 30"</td> <td style="text-align: center;">6° 30'</td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">4° 23' 50"</td> <td style="text-align: center;">8° 26'</td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">5° 30' 20"</td> <td style="text-align: center;">10° 30'</td> </tr> </table>	α	β	3° 5' 30"	6° 30'	4° 23' 50"	8° 26'	5° 30' 20"	10° 30'	<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">α</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">β</td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">3° 5' 30"</td> <td style="text-align: center;">6° 30'</td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">4° 23' 50"</td> <td style="text-align: center;">8° 26'</td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">5° 30' 20"</td> <td style="text-align: center;">10° 30'</td> </tr> </table>	α	β	3° 5' 30"	6° 30'	4° 23' 50"	8° 26'	5° 30' 20"	10° 30'
α	β																
3° 5' 30"	6° 30'																
4° 23' 50"	8° 26'																
5° 30' 20"	10° 30'																
α	β																
3° 5' 30"	6° 30'																
4° 23' 50"	8° 26'																
5° 30' 20"	10° 30'																

8-rasm

4.5.11 Agar jadval ustunlarida keltirilgan barcha ko'rsatkichlar bitta xuddi o'sha kattalik birligida ifodalangan bo'lsa, unda ushbu birlikni jadval ustida o'ng tomonda, jadvalni qismlarga bo'lganda esa - 2-rasmga muvofiq uning har bir qismi ustida keltiriladi.

Agar jadvalning ko'pchilik ustunlarida kattaliklarning bitta xuddi o'sha birliklarida (misol uchun millimetrlarda, voltlarda) ifodalangan ko'rsatkichlar keltirilgan bo'lib, shuningdek, kattaliklarning boshqa birliklarida ifodalangan ko'rsatkichlari bo'lgan ustunlari mavjud bo'lsa, unda jadval ustida ko'pchilik ko'rsatkichlarning umumlashgan nomi hamda ushbu ko'rsatkichlar uchun umumiy kattalik birligining belgilanishi, misol uchun, "o'lchamlari millimetrlarda", "kuchlanishi voltlarda" keltirilishi, boshqa ustunlarning sarlavhalari (kichik sarlavhalari) da 9-rasmga muvofiq (muvofiq ko'rsatkichning nomidan keyin) kattalikning boshqa birliklarining belgilanishi keltirilishi kerak.

_____-jadval - _____ raqami jadvalning nomi	O'lchamlari millimetrlarda																
<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th style="width: 16.6%;">Shartli o'tish, D_y</th> <th style="width: 16.6%;">D</th> <th style="width: 16.6%;">L</th> <th style="width: 16.6%;">L1</th> <th style="width: 16.6%;">L2</th> <th style="width: 16.6%;">Massasi, kg, ko'pi bilan</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td style="text-align: center;">50</td> <td style="text-align: center;">160</td> <td style="text-align: center;">130</td> <td rowspan="2" style="text-align: center;">525</td> <td rowspan="2" style="text-align: center;">600</td> <td style="text-align: center;">160</td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">80</td> <td style="text-align: center;">195</td> <td style="text-align: center;">210</td> <td style="text-align: center;">170</td> </tr> </tbody> </table>	Shartli o'tish, D_y	D	L	L1	L2	Massasi, kg, ko'pi bilan	50	160	130	525	600	160	80	195	210	170	
Shartli o'tish, D_y	D	L	L1	L2	Massasi, kg, ko'pi bilan												
50	160	130	525	600	160												
80	195	210			170												

9-rasm

4.5.12 Ustunlar o'lchashlar, ko'rsatkichlar sarlavhalari va/yoki kichik sarlavhalarning matnlarini qisqartirish uchun parametrlar (o'lchashlar, ko'rsatkichlar)ning ayrim nomlari O'z DSt 2.321 bilan belgilangan harfli belgilar bilan yoki standart matnida yoki grafik materialda izohi berilgan bo'lsa boshqa belgilar, misol uchun, D — diametr, H — balandlik, L — uzunlik kabilar bilan almashtiriladi.

Bitta xuddi o'sha harfli belgilanishi bo'lgan parametrlar 9 va 10-rasmlarda ko'rsatilganidek ularning raqamlarini o'sib borish tartibida ketma-ket guruhlanadi.

-jadval -

Podshipnikning tashqi diametri	Ariqcha					D2	O'rnatish xalqasi					
	D1		A1		B		r	H		C	R1	
	Nominal	Chegaraviy og'ish	Nominal	Chegaraviy og'ish				Nominal	Chegaraviy og'ish		Nominal	Chegaraviy og'ish
30	23,2	-0,2	2,05	-0,15	1,3	0,4	34,6	3,2	-0,1	1,10	0,4	-0,1
32	30,2						39,6					
35	33,2						41,2					
37	34,8	-0,3					44,5				0,5	-0,2
40	38,1						46,2				0,6	-0,3
42	39,8											

10-rasm

4.5.13 Agar “dan ko‘p”, “ko‘pi bilan”, “dan kam”, “kamida” yoki boshqa cheklovchi so‘zlar ko‘rsatkich (parametr, o‘lcham)ning barcha qiymatlariga tegishli bo‘lsa, 4, 7, 9-rasmlarga muvofiq ular ustun yoki qator sarlavhasida ushbu ko‘rsatkichining nomi yoki ushbu ko‘rsatkich kattaligining birligi belgilanishidan keyin keltiriladi hamda undan vergul bilan ajratib qo‘yiladi. Agarda berilgan ko‘rsatkichning kattalik birligi belgilanishi jadval ustida ko‘rsatilgan bo‘lsa, unda cheklovchi so‘zlar ko‘rsatkich nomidan keyin keltiriladi.

4.5.14 Ikki, bir nechta yoki hamma qatorlar uchun bir xil bo‘lgan kattaliklarning sonli qiymatlari, qoidaga ko‘ra, 10-rasmga muvofiq bir marta ko‘rsatiladi.

Asoslangan hollarda (bu jadvaldan foydalanishni qiyinlashtirmaydigan holda) 11-rasmda ko‘rsatilganidek, ikki va undan ko‘p ustunlar uchun bir xil bo‘lgan bitta ko‘rsatkichning sonli qiymatlarini bir marta ko‘rsatishga yo‘l qo‘yiladi.

-jadval -

Ko‘rsatkichning nomi	A	B
	Markalari uchun ko‘rsatkichning qiymati	
1 darajagacha qurish vaqti, min., ko‘pi bilan	30	40
Parda qatlami adgeziyasi, ball, Ko‘pi bilan	2	
Issiqqa chidamligi, °C, kamida	80	95

11-rasm

4.5.15 Ko‘rsatkich kattaligining ikki yoki bir nechta sonli qiymatlariga tegishli bo‘lgan chegaraviy og‘ishlari 10-rasmga muvofiq alohida ustunda keltiriladi.

4.6.4 Ilovalarning grafik materialdan tashqari, grafik material odatda, biridan-biriga o‘tuvchi raqamlash bilan arab raqamlari bilan raqamlanadi va ushbu raqamlardan keyin “rasm” so‘zi keltiriladi.

Grafik materialni bo‘lim doirasida raqamlashga yo‘l qo‘yiladi. Bu holda rasmning raqami bo‘lim raqami va undan nuqta bilan ajratilgan rasmning tartib raqamidan tashkil topadi.

Misol - 1.1-rasm, 1.2-rasm va shunga o‘xshash.

Har bir ilovaning grafik materiali arab raqamlari bilan alohida raqamlash bilan belgilanib, har bir raqam oldiga ilovaning belgilanishi qo‘shiladi va ular nuqta bilan ajratiladi.

Misol - B.3-rasm

4.6.5 “Rasm” so‘zi va uning raqami (belgilanishi) grafik materialning tagida keltiriladi. Undan keyin chiziqcha bilan ajratib uning mavzuga ko‘ra nomlanishi keltirilishi mumkin.

Misol - 1-rasm - Jihoz detallari

4.6.6 Zarurat bo‘lganda grafik material ostida tushuntiruvchi ma’lumotlar ham keltirilishi mumkin. Bu holda “rasm” so‘zi va grafik materialning nomi tushuntiruvchi ma’lumotlardan keyin keltiriladi.

4.6.7 Agarda grafik material qiymatlari jadval shaklida taqdim etilgan o‘lchamlarning joylashtirilishini tasvirlash uchun yoki agar grafik material jadval shaklida keltirilgan ma’lumotlar bilan birga keltirilgan bo‘lsa, unda jadval va grafik materiali bitta betda yoki ikkita yondosh betlarda keltiriladi. Bunda jadval grafik materialdan pastda yoki uning chap tomonida, zarurat bo‘lganda esa keyingi betda keltiriladi.

4.6.8 Agar grafik material bitta betga sig‘masa, uni boshqa betlarga olib o‘tishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda uning mavzuga ko‘ra nomi grafik material boshlangan betda, izohlovchi ma’lumotlar - grafik materiali joylashtirilgan ixtiyoriy betlarning birida, ularning tagida esa (yoki bevosita grafik material tagida) berilgan grafik material joylashgan betlarning har birida “... rasm, ... qism” so‘zlari keltiriladi.

4.6.9 Har bir grafik materialiga standartlar matnida havola beriladi.

Misol - 1-rasmda ko‘rsatilgan.

4.7 Formulalar

4.7.1 Zarur bo‘lganda, standartlar matnida, jadvallarda va grafik materialni izohlovchi ma’lumotlarda formulalar qo‘llanilishi mumkin.

4.7.2 Ilovalar, jadvallar va grafik materialni izohlovchi ma’lumotlarda keltiriladigan formulalardan tashqari formulalar arab raqamlari bilan biridan biriga o‘tuvchi raqamlash bilan raqamlanadi. Bunda formulaning raqami u bilan bir qatorda formulaning o‘ng tomonida kichik qavs ichida yoziladi. Agar standartlar matnida bitta formula keltirilgan bo‘lsa uni (1) deb belgilanadi.

Formulalarni bo‘lim doirasida raqamlashga yo‘l qo‘yiladi. Bu holda formulaning raqami bo‘lim raqamidan hamda undan nuqta bilan ajratilgan formulaning tartib raqamidan tashkil topadi.

Misol - (3.3).

4.7.3 Ilovalarda keltiriladigan formulalar har bir ilova doirasida har bir raqam oldiga ushbu ilovani belgisini qo‘shib va ularni nuqta bilan ajratib arab raqamlari bilan alohida raqamlash bilan belgilanadi.

Misol - (B.1).

4.7.4 Jadvallarda yoki grafik materialning izohlovchi ma’lumotlarida keltiriladigan formulalar raqamlanmaydi.

4.7.5 Formula kiruvchi simvollar va sonli koeffitsiyentlarning tushuntirishlari (agar muvofiq tushuntirishlar oldin matnda keltirilmagan bo‘lsa) bevosita formula tagida keltirilishi lozim.

Har bir simvolning tushuntirishi yangi qatordan, ushbu simvollar formulada keltirilgan tartibda keltiriladi. Tushuntirishning birinchi qatori “bu yerda” so‘zi bilan boshlanadi:

Misol - Har bir namunaning zichligi r , kg/m^3 , quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\rho = \frac{m}{v}, \quad (1)$$

bu yerda: m - namuna massasi, kg ;
 v - namuna hajmi, m^3 .

Birini ketidan biri kelayotgan va matn bilan ajratilmagan formulalar vergul bilan ajratiladi.

Misol - $A = \frac{a}{b}$, (1)

$$B = \frac{c}{\lambda}. \quad (2)$$

4.7.6 Formulalarni faqat bajarilayotgan matematik amallarning belgilarida keyingi qatorga olib o‘tishga yo‘l qo‘yiladi, bunda keyingi qatorning boshida belgi takrorlanadi. Formulaning ko‘paytirish amalini ifodalovchi belgida olib o‘tishda “x” belgisi qo‘llaniladi.

4.7.7 Standartlar matnida formulalarga havola qilinganda ularning tartib raqamlari (belgilanishlari) qavs ichida keltiriladi.

Misol - ... (1) formula bo‘yicha.

4.7.8 Standartlarda matematik tenglamalarni bayon etish tartibi xuddi formulalarni bayon etish kabi.

4.8 Havolalar

4.8.1 Havolalar quyidagilar maqsadga muvofiq bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi:

a) standartda uning alohida qoidalari yoki ular parchalarining takrorlanishini bartaraf qilish;

b) ushbu standart qoidalarining boshqa standartlar qoidalari bilan takrorlanishini bartaraf etish;

c) ko‘rsatilgan qoida, uning qismi, alohida ko‘rsatkichi, uning qiymati, ko‘rsatkichlar to‘plami va ularning qiymatlari, grafik material, uning pozitsiyasi va shu kabilar ushbu standartning muvofiq tarkibiy elementida yoki o‘zga standartda keltirilganligi haqida axborot berish;

d) ushbu standartlashtirish obyektiga tegishli bo‘lgan boshqa standartlarning mavjudligi haqida axborot berish;

e) boshqa standart bo‘yicha chiqarilayotgan mahsulot tavsifini keltirish.

4.8.2 4.8.1-bandning a) sanab o‘tishida ko‘rsatilgan holda, ushbu standartning alohida tarkibiy elementlariga havolalar keltiriladi.

4.8.2.1 Ushbu standartning tarkibiy elementlariga havolalar qilinganda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- ilovalarning belgilanishi;
- bo‘limlar, kichik bo‘limlar, bandlar, kichik bandlar, grafik materiallar, formulalar va jadvallarning (shu jumladan ilovalarda keltirilgan) raqamlari;
- sanab o‘tishlarning belgilanishlari (va raqamlari);
- jadvallarda keltirilgan ko‘rsatkichlarining raqamlari.

Ushbu standartda keltirilgan grafik material tarkibiy elementlarining belgilanishlari (raqamlari)ga ham (misol uchun chizmada ko‘rsatilgan buyumning tarkibiy qismlari pozitsiyalari raqamlariga) havolalar qilishga yo‘l qo‘yiladi.

4.8.2.2 Ilovalarga havolalar qilish - 3.13.8 bo‘yicha.

4.8.2.3 Nuqta bilan ajratilmagan raqamlarga ega bo‘lgan raqamlarga ega bo‘lgan matnning tarkibiy elementlariga havolalar qilishda ushbu elementni nomi to‘liq ko‘rsatiladi, misol uchun “... 5-bo‘limga muvofiq”, “3-band bo‘yicha”.

Agar standartning tarkibiy elementining raqami (belgilanishi) nuqta bilan ajratilgan raqamlar (harflar va raqamlar) dan tashkil topgan bo‘lsa, unda ushbu tarkibiy elementni nomi keltirilmaydi, misol uchun, “... 4.10 bo‘yicha”, “... A.12 ga muvofiq”.

Bu talab jadvallar, formulalar va grafik materiallarga tegishli bo‘lmaydi, ularga havolalar qilinganda har doim ushbu tarkibiy elementlarning nomlari aytiladi, misol uchun “... (3.3) formula bo‘yicha”, “... B.2 jadvalda ...”, “... 1.2 rasmda ...”.

Standartlarning tarkibiy elementlariga havolalar qilinganda: “... 2-bo‘limga muvofiq”, “... 3.1 ga binoan”, “... 3.1.1 bo‘yicha”, “4.2.2 ning”, “b) sanab o‘tishiga muvofiq”, “... (3.3) formula bo‘yicha”, “... 1-jadvalga muvofiq”, “2-jadvalning 1-ko‘rsatkichga ...” va shunga o‘xshash ifodalarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Ilovalarning alohida tarkibiy elementlariga havolalar qilishda quyidagi ifodalarni qo‘llashga tavsiya etiladi: “... A.1 ga muvofiq”, “... A.2-rasmda ...”, “... B.2-jadvalda ...” va shunga o‘xshash.

4.8.2.4 Agarda standartlardan foydalanuvchiga qandaydir qoida, uning qismi, alohida ko‘rsatkich, uning qiymati, ko‘rsatkichlar va ular qiymatlarining to‘plami, grafik materiali, uning pozitsiyasi va shunga o‘xshash ushbu standartning muvofiq tarkibiy elementida keltirilganligi haqida eslatish zarurati mavjud bo‘lsa, unda ushbu tarkibiy elementga havola qavs ichida (“... ga qaralsin”) keltiriladi.

Misollar

1 ... transportda tashish va saqlash qoidalari (5-bo‘limga qaralsin)

2 ... fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar (3.2.1-bandga qaralsin)

3 ... urinish nuqtasi (8-rasm, 2-pozitsiyaga qaralsin)

4.8.3 Agarda ishlab chiqilayotgan standartlarda bayon etilishi lozim bo‘lgan talablar, tavsiyanomalar yoki yo‘riqnomalar boshqa standartda (yoki uning alohida qoidalarida) yetarlicha to‘liq va bir ma’noda belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, unda unga qilingan havoladan foydalaniladi.

4.8.3.1 Standartlarda O‘zbekistonda qabul qilingan xalqaro (mintaqaviy) va milliy standartlarga havolalar qilinadi.

4.8.3.2 Standartlarga havolani yozish uchun havola qilinayotgan standartning qisqacha*

* Standartni tasdiqlash (qabul qilish) yilini belgilaydigan raqamlarsiz va O‘z DSt 3185 ga binoan standartning to‘liq belgilanishida qavs ichida xalqaro (mintaqaviy) standartga muvofiqligi haqidagi axborotsiz.

belgilanishi, ushbu standartni aniq qoidasiga havola qilinganda esa, uning belgilanishidan keyin qavs ichida ushbu qoida bayon etilgan standartlar tarkibiy elementining nomi va raqami (belgilanishi) keltiriladi. Agar shu bilan birga standartlarning aniq bandi (bandlari) va/yoki kichik bandi (kichik bandlari)ga yoki ilovaga havola qilish zarur bo'lsa, unda ushbu standartning belgilanishi uni tasdiqlash (qabul qilish) yili bilan, ammo qavs ichida keltiriladigan xalqaro (mintaqaviy) standartga muvofiq kelishi xaqidagi axborotsiz keltiriladi. Bunda, tasdiqlangan (qabul qilingan) yili muvofiq ko'rsatkich (katalog)da keltirilgan raqamlar sonidan foydalangan holda ko'rsatiladi.

Misollar

1 Qo'ng'ir ko'mirlardagi namlikni aniqlash - FOCT 30100 bo'yicha.

2 VIN kodi tamg'alanishiga talablar - O'z DSt 2448-2012 (3.2) bo'yicha qabul qilinadi.

4.8.3.3 Standartlarni ishlab chiqishda undan foydalanishni qiyinlashtiradigan, ortiqcha asoslanmagan havolalar qilishdan saqlanish lozim.

4.8.3.4 Standartlar matnida bir nechta standartga havola qilinganda standartlar belgilanishlarini takrorlash kerak.

Misol - Sinovlar (shu jumladan o'lchashlar) FOCT 12.1.012, FOCT 16519, FOCT 16844 va FOCT 17770 ga muvofiq, shuningdek O'z DSt 789, O'z DSt 915 ga muvofiq o'tkaziladi.

4.8.3.5 Agarda standartlarda ro'yxatga olish raqamlari sonlarining uzluksiz ketma-ketligini ifodalaydigan bir nechta standartlarga bir yo'la havola qilish zarur bo'lsa, unda bunday havolani keltirishda birinchi va chiziqcha bilan ajratilgan oxirgi standartlarning (raqamlarini oshib borish tartibida) belgilanishi keltiriladi.

Misollar

1 Mahsulotdagi zaharli elementlarni aniqlash - FOCT 26927, FOCT 26930 - FOCT 26934 bo'yicha.

2 ... bosmaxona shriftlarining garnaturalari FOCT 3489.2 - FOCT 3489.38 bo'yicha.

4.8.4 Standartlarda boshqa standartning qandaydir qoidasini (yoki uning qismini) takrorlash maqsadga muvofiq bo'lgan holda, ushbu qoida (yoki uning qismi) ingichka chiziqli ramkaga joylashtirilib, undan keyin katta qavs ichida ushbu standartni tasdiqlash yoki qabul qilish yilini ko'rsatgan holda (ammo aynan bir xil xalqaro (mintaqaviy) standartning belgilanishi O'z DSt 3185 ga binoan qavs ichida keltirilgan bo'lsa, uni ko'rsatmagan holda) belgilanishi hamda undan vergul bilan ajratilgan ushbu qoida (yoki qism) keltirilgan tarkibiy elementning nomi keltiriladi.

Agar standartlarda qaytarilayotgan qoida unda alohida tarkibiy element (band, kichik band, atamashunoslik maqola)ni tashkil etsa yoki uni izoh sifatida bayon etish maqsadga muvofiq bo'lsa, unda ushbu tarkibiy elementning raqami yoki "Izoh" - so'zi ramkaning tepasida chap tomonda keltiriladi.

Misollar *

1 Izoh

Sinovlarning normal iqlim sharoitlari deb quyidagilar qabul qilinadi:

- harorat..... plyus (25 + 10) °C;

- havoning nisbiy namligi45 % dan to 80 % gacha

- atmosfera bosimi84,0 dan to 106,7 kPa gacha (630 dan to 800 mm Hg)

[FOCT 15150, 3.15]

*Havolalarning bu misollarida (rasmiylashtirishning tasvirlanishi maqsadga muvofiq bo'lgani uchun) 4.11.2-bandga muvofiq milliy standartlardagi misollarni ajratib ko'rsatiladigan kursiv qo'llanilmadi.

3.12 Sana: Ushbu kalendar uchun belgilangan qoidalarga muvofiq barcha hujjatlarda voqea onining sonli ifodalanishini qayd qiluvchi yozuv shakli. Yozuv yillar hisobining boshidan boshlangan joriy yilning tartib raqamidan, joriy oyning tartib raqamidan va oyning boshidan boshlangan joriy sutkalarining tartib raqamidan tashkil topadi.

Misol - 2000.06.01

[GOST 8.567, 3.6.1]

Bunga o‘xshash havolalar normativ hisoblanmaydi. Bunday havola standartlari haqidagi axborot “Standartlarga havolalar” bo‘limida keltirilmaydi. Agarda standart xalqaro (mintaqaviy) standartning qo‘llanilishi asosida ishlab chiqilayotgan bo‘lsa, unda uning (autentik tarjima ko‘rinishida) matnidan milliy standartda foydalanilganda o‘xshash standartni rasmiylashtirishning O‘z DSt 3185 da bayon etilgan xususiyatlari hisobga olinishi kerak.

4.8.5 Milliy (dastlabki) standartlarda texnik reglament, qoida va normalarga havolalar keltirishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda hujjatning ma‘naviy mazmuni, uni tasdiqlagan idoraning qisqacha nomi va “Bibliografiya” qo‘shimcha elementida keltirilgan havola qilingan hujjatlarining ro‘yxati bo‘yicha katta qavs ichidagi navbatdagi tartib raqami keltiriladi.

4.8.5.1 Standartlarda maqolalar, har xil hisobotlar, monografiyalar, ma‘lumotnomalar va standartlarga tegishli bo‘lmagan boshqa hujjatlarga, shuningdek milliy standartlarda unga aynan bir xil bo‘lgan xalqaro (mintaqaviy) standartning asliga to‘g‘ri tarjimasining qo‘llanilishi shart qilib qo‘yilgan havolalaridan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilinmagan xorijiy mamlakatlarning standartlariga havolalar qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.8.5.2 Agarda standartlardan foydalanuvchilarga xalqaro (mintaqaviy) darajada ushbu standartlashtirish obyekti va aspektiga qanday talab qo‘yilganligi haqida axborot berish zarurati bo‘lsa, unda muvofiq axborot “Xalqaro (mintaqaviy) standartlashtirishda” so‘zlari bilan boshlab, undan keyin “Bibliografiya” qo‘shimcha elementida havola qilingan hujjatlar ro‘yxatida muvofiq xalqaro (mintaqaviy) standart keltirilgan navbatdagi tartib raqamini katta qavs ichida keltirib, izoh ko‘rinishida bayon etiladi.

Misol - Izoh - Xalqaro standartlashtirishda [1] xalqaro standartni mintaqaviy yoki milliy standartda qabul qilinishi deb, mintaqaviy yoki milliy standartni xalqaro standart asosida chop etilishi yoki ushbu xalqaro standartdan har qanday chetlanishni ko‘rsatgan holda xalqaro standartning mintaqaviy (milliy) standart maqomida tasdiqlanishi hisoblanadi.

4.8.6 Agar standartlarda boshqa standart bo‘yicha chiqarilayotgan mahsulotning tavsifini keltirish maqsadga muvofiq bo‘lsa, uni bayon etish o‘rniga yoki unga qo‘shimcha qilib ushbu standartga normativ havola keltiriladi.

Izohlar

1 Bunday havolaning zarurati mahsulot standartida sotib olinadigan standart mahsulotlariga (butlovchilarga, xomashyo, materiallar va boshqalar) qo‘yiladigan standartlashtirilayotgan mahsulotni tayyorlash, uni o‘rab-joylash/qadoqlash, tamg‘alash, butlash, sinash, transportda tashish va saqlash uchun zarur yoki maqsadga muvofiq bo‘lgan talablarni belgilashda kelib chiqadi. Qolgan turlar (xizmatlar, jarayonlar, nazorat usullari)ning standartlarida bunday havolalarning zarurati standartda standartlashtirilayotgan ishlar uchun qo‘llaniladigan standart texnologik va/yoki sinov asbob-uskunalari, apparatura, nazorat (o‘lchash) vositalari, materiallar, reaktivlar, eritmalar va yordamchi qurilmalarga qo‘yiladigan talablarni belgilashda kelib chiqadi.

2 Standartga havola qilish qo‘llanilayotgan mahsulot uchun tavsiflarini (talablarini) bayon etishning birgina usuli hisoblanmaydi. Bunday tavsif (talab) bevosita, shu jumladan ushbu mahsulot ko‘rsatkichlarining aniq qiymatlarini ko‘rsatish yo‘li bilan bayon etilishi mumkin.

4.8.6.1 Agar ushbu standartlarga muvofiqligiga erishish uchun havola qilinayotgan standartning barcha talablariga rioya etish zarur bo'lsa, unda havola qilinayotgan standartning nomida keltirilgan tartibda tavsiflanayotgan mahsulot nomining so'zlari keltiriladi, undan so'ng havola qilinayotgan standartning qisqacha belgilanishi va "bo'yicha" so'zi keltiriladi.

Misollar

1 Panshahali yuklagichlar uchun GOCT 32000 bo'yicha yuk plitalari qo'llaniladi.

2 ... GOCT 16732 bo'yicha quritilgan kashnich, ukrop ko'katlari yoki osh tuzi bilan konservalangan yarim tayyor mahsulot ko'rinishidagi muvofiq ko'kat.

4.8.6.2 Agarda havola qilinayotgan standart mahsulot (xomashyo, materiallar)ning bir nechta xillari (turlari, markalari, modellari va shunga o'xshash)ga tegishli bo'lib, havolani ularning biriga yoki ayrimlariga qilishi kerak bo'lsa, unda ishlab chiqilayotgan standartda havola qilinayotgan standartning belgilanishidan so'ng "bo'yicha" so'zidan keyin qo'shimcha ravishda ushbu xil, tur, marka yoki modeli (ushbu xillari, turlari, markalari yoki modellari)ning shartli belgilanishi yoki boshqa tavsifi va nomi ko'rsatiladi.

Misollar

1 GOCT 18337 bo'yicha TJI 000 va TJI 00 markali talliy.

2 GOCT 10223 bo'yicha aniqlik sinflari (0,2); (0,5); (1) bo'lgan va nominal massasi 50 dan 100 g gacha diskret amalli og'irlik dozalagichlari.

3 GOCT 13830 bo'yicha o'zi cho'kib hosil bo'lgan, yodlangan, birinchi sort, 0 elamdagi osh tuzi.

4.8.6.3 Agar havola qilinayotgan standartda mahsulotning shartli belgilanishi belgilangan bo'lsa, unda ushbu mahsulotning xili (markasi, modeli va shunga o'xshash)ni aniqlashtirish zarur bo'lsa, ishlab chiqilayotgan standartda muvofiq shartli belgilanishi keltiriladi. Bunda standart (uni tasdiqlash yoki qabul qilish yilini ko'rsatmagan holda) qisqacha belgilanishi keltiriladi.

Misollar

1 GOCT 7501-98 bo'yicha P30H2KX*

2 GOCT 20295 bo'yicha 3-530 X 8-K 52 xilli quvur.

4.8.6.4 Agar ushbu standartga muvofiq kelishiga erishish uchun havola qilinayotgan standartning asosiy talablariga rioya qilish zarur bo'lsa, unda ishlab chiqilayotgan standartda ushbu shart maxsus ko'rsatiladi. Bu holda mahsulot nomining so'zlari odatdagi tartibida keltiriladi.

Izoh - Mahsulot standartining asosiy talablariga rioya qilish zarurati ushbu mahsulotning albatta ushbu standart bo'yicha chiqarilishini bildirmaydi.

Misollar

1 GOCT 17471 ning asosiy talablariga muvofiq keladigan shirinlashtiruvchilari va shakar o'rnini bosuvchilari bo'lmagan ixtiyoriy nomdagi pomidor qaylasi.

2 GOCT 32001 ning asosiy talablariga muvofiq keladigan ixtiyoriy xildagi va uzunlikdagi sartaroshlik qaychilari.

4.8.6.5 Mahsulot standartining qo'llanish doirasi uning nomidan kelib chiqadigan tor ma'noda bo'lgan hollarda, bunday standartga qilingan havolani ushbu standart tegishli bo'lgan mahsulotning aniq markasi (modeli, shartli nomlari va shunga o'xshash)ni ko'rsatgan holda yoki ushbu mahsulot tavsifining misoli sifatida standartga qilingan havoladan foydalanib ko'rsatiladi.

* Bu yozuv tasmasini tortib chiqariladigan uchida xalqasi bo'lgan, ikkinchi aniqlik sinfidagi, zanglamaydigan po'lat tasmali, shkalasini nominal uzunligi 30 m bo'lgan metall o'lchash ruletkasini belgilash uchun keltiriladi.

Bunday havola ma’lumotli hisoblanadi. Bunda mahsulot nomi so‘zlarining to‘g‘ri tartibida keltiriladi, havola qilinayotgan standartning qisqacha belgilanishi esa qavs ichida “masalan” so‘zidan keyin, undan “so‘ng bo‘yicha” so‘zi qo‘shib qo‘yiladi.

Misollar

1 FOCT 16131 bo‘yicha xomlayin dudlangan braunshveych kolbasasi.

2 ... xomlayin dudlangan kolbasa (masalan FOCT 16131 bo‘yicha)

4.9 Izohlar

4.9.1 Agar standartlarning ayrim qoidalari, jadvallari yoki grafik materialiga, ularning mazmuniga ta’sir etmaydigan izohlovchi ma’lumotlar yoki bildirgichli ma’lumotlar keltirish zarur bo‘lsa, unda standartga izohlar kiritiladi.

Izohlar talablarni o‘z ichiga olmasligi kerak.

4.9.2 Izoh katta harf bilan xat boshi chetlanishidan boshlab yoziladi. Izoh matnining oxirida (undagi gaplar sonidan qat’i nazar) nuqta qo‘yiladi.

Izoh, u bevosita tegishli bo‘lgan qoida (grafik material)dan keyin keltiriladi.

Jadvalning izohi 16-18-rasmlarda ko‘rsatilganidek, jadvalning oxirida, jadval tugashini belgilovchi chiziq ustida joylashtiriladi. Bunda izoh jadvaldan tutash ingichka gorizontaal chiziq bilan ajratib qo‘yiladi.

4.9.3 Bitta izoh raqamlanmaydi.

Bir nechta izohlar tartib bo‘yicha arab raqamlari bilan raqamlanadi. Bunda “Izohlar” so‘zidan keyin qo‘sh nuqta qo‘yilmaydi.

Misollar*

1 Izoh - Sport turizmiga turistik sport sayohatlari va turistik sport musobaqalari kiradi.

2 Izohlar

1 Asoslangan hollarda mustaqil sinovlar toifasiga ishonchlilik sinovlari, radiatsiyaga chidamlilik sinovlarini va boshqalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

2 Mahsulotni sertifikatlashtirish maqsadlari uchun sertifikatlashtirish sinovlari o‘tkaziladi yoki sertifikatlashtirish qoidalari bilan belgilangan tartibda boshqa toifalardagi sinov natijalaridan foydalaniladi.

4.9.4 Standartda izohlar kichraytirilgan o‘lchamdagi shriftlar bilan ajratib ko‘rsatiladi.

4.10 Sahifa osti izohi

4.10.1 Agar standartlarda keltirilgan ayrim so‘zlar, so‘z birikmalari yoki ma’lumotlarni izohlash zarur bo‘lsa, unda ulardan keyin sahifa osti izohining belgisi qo‘yiladi.

Sahifa osti izohi izohlanayotgan so‘z (so‘z birikmasi yoki ma’lumotlar) keltirilgan betning oxirida, jadval ma’lumotlariga tegishli sahifa osti izohi esa - jadval oxirida, jadvalning tugashini belgilovchi chiziq ustida joylashtiriladi. Bunda sahifa osti izohi matndan betning chap tomonidagi qisqacha tutash ingichka gorizontaal chiziq bilan, jadval ma’lumotlaridan esa xuddi shunday, ammo jadvalni chegaralaydigan vertikal chiziqqa o‘tkazilgan chiziq bilan ajratiladi. Bundan tashqari sahifa osti izohi kichraytirilgan o‘lchamdagi shrift bilan ajratib ko‘rsatiladi.

4.10.2 Sahifa osti izohining belgisi bevosita izoh berilayotgan so‘zdan (so‘z birikmasining oxirgi so‘zi, son, simvoldan) keyin, shuningdek, izoh beruvchi matn oldiga qo‘yiladi.

4.10.3 Sahifa osti izohining belgisi yulduzcha (“*”), ikki yoki uchta yulduzcha (“**”) yoki (“***”) shaklida yoki arab raqamlari va qavs bilan ko‘rsatilib, ular shriftning yuqori chetining balandligida keltiriladi. Sahifa osti izohining belgisi uning matnidan oraliq bilan ajratib qo‘yiladi.

Misollar*

1 ITI ni bajarish uchun asos bo‘lib uni bajarish bo‘yicha TT¹⁾ yoki ish buyurtma bo‘yicha bajarilgan holda – buyurtmachi²⁾ bilan shartnoma (kontrakt) hisoblanadi.

1) TT (ITI shartnoma bo‘yicha bajarilgan holda) buyurtmachi korxonasi (tashkilot)ning rahbari tasdiqlaydi.

2) ITI buyurtmachisi bo‘lib davlat buyurtmachisi yoki uning natijasidan manfaatdor bo‘lgan mulkchilikning ixtiyoriy shaklidagi xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanishi mumkin.

2 ... 35 Hz gacha bo‘lgan chastotalarda titrash chastotasi** $\pm 0,5$ Hz...

4.10.4 Har bir bet uchun sahifa osti izohlarini raqamlash (belgilash)ning alohida tizimi qo‘llaniladi. Bunda uchtadan ko‘p yulduzchalarni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.11 Misollar

4.11.1 Misollar standartlarning alohida qoidalarini izohlaganda yoki ularning qisqaroq bayon etilishiga yordam bergan hollarda keltirilishi mumkin.

4.11.2 Misollar izohlar (4.9-band bo‘yicha) kabi joylashtiriladi, rasmiylashtiriladi, raqamlanadi va yarim qora kursiv bilan ajratib ko‘rsatiladi.

4.12 Qisqartmalar

4.12.1 Standartlarda quyidagi qisqartmalarga yo‘l qo‘yiladi: “y.” - yil, “min.” - minimum, “max.” - maksimal. Hisob birliklarining qisqartmalari faqat sonli qiymatlarda va jadvallarda qo‘llaniladi.

Misol - 5 cm.

4.12.2 Standartlarda (4.12.1-bandga nisbatan) qo‘shimcha ravishda faqat ushbu standartda qo‘llaniladigan qisqartmalar belgilanishi mumkin. Bunda to‘liq nomi uning standartda birinchi bor esga olinganda keltirilishida kerak, to‘liq nomidan keyin esa, qavs ichida qisqartirilgan nomi yoki abbreviaturasi keltiriladi. Keyingi tilga olishda qisqartirilgan nomi yoki abbreviaturasi qo‘llaniladi.

Misol - Ushbu standart kichik kalibrli bir marta o‘qlanadigan to‘pponchalarga (keyinchalik - to‘pponchalar) tegishli.

4.12.3 Agar standartlarda qisqartmalar “Qisqartmalar” bo‘limida yoki “Belgilashlar va qisqartmalar” bo‘limida yoki “Atamalar va ta‘riflar” bo‘limida yoki muvofiq birlashtirilgan bo‘limda*** belgilangan bo‘lsa, unda bu qisqartmalarni standartda faqat ushbu bo‘limdan keyin qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi. Bunda 4.12.2-bandda belgilangan yozish shakli qo‘llanilmaydi.

4.13 Shartli belgilashlar, tasvirlashlar, belgilar

4.13.1 Zarurat bo‘lganda standartlarda shartli belgilashlar, tasvirlashlar va belgilar qo‘llanilishi mumkin.

* Bu misollarda (izohlarning rasmiylashtirilishini tasvirlash maqsadga muvofiq bo‘lgani uchun) odatda, 4.11.2-bandga muvofiq misollar ajratib ko‘rsatiladigan kursivdan foydalanilmadi.

** Qayd qilingan chastotalar usuli bilan sinash paytida.

*** Agar bu standartda qisqartmalar “Qisqartmalar” bo‘limida, yoki “Belgilashlar va qisqartmalar” bo‘limida yoki “Atamalar va ta‘riflar” bo‘limida yoki muvofiq birlashtirilgan bo‘limda (4.12.3-bandga qaralsin) belgilanmagan bo‘lsa. Ko‘rsatilgan bo‘limlar 3.10 va/yoki 3.11-bandga muvofiq rasmiylashtiriladi.

4.13.2 Standartlarda boshqa standartlarda qabul qilingan shartli belgilashlar, tasvirlashlar va belgilar, misol uchun maxsus shartli belgilash (4.8.6.3-bandga qarang) qo‘llanilishi mumkin.

4.13.3 Agar shartli belgilashlar, tasvirlashlar va belgilar boshqa standartlar bilan belgilangan bo‘lmasa, ushbu belgilashlar, tasvirlashlar va belgilar standart matnida yoki 3.11-bandga muvofiq rasmiylashtiriladigan “Belgilashlar va qisqartmalar” elementida izohlanadi.

4.13.4 Agar zarur belgilashlar, tasvirlashlar va belgilar xalqaro (mintaqaviy) standartda belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, unda milliy standartlarda ushbu shartli belgilashlar (tasvirlashlar, belgilar)ni qo‘llash tavsiya etiladi.

Bunda ular 4.13.3-bandga muvofiq izohlanadi hamda ushbu xalqaro (mintaqaviy) standart haqidagi axborot esa 4.8.5.2-bandga muvofiq keltiriladi.

4.14 Kattaliklar birliklari

4.14.1 Standartlarda qonunchilikda belgilangan tartibda SI o‘lchov birliklari tizimidan foydalaniladi.

Bitta standartda kattaliklar birliklari belgilanishlarining turli tizimlarini qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kattaliklar birliklarining belgilanishi jadvallarning ustunlari va qatorlar sarlavhalarida va formulalarda qo‘llaniladigan simvollarning tushuntirishlarida, boshqa hollarda esa, misol uchun, standartlar matnida - ushbu kattaliklarning sonli qiymatlarida qo‘llanilishi mumkin.

Misol - 10 kg

4.14.2 Bir standart doirasida bitta xuddi o‘sha ko‘rsatkich (parametr, o‘lchash) uchun kattalik birligi qo‘llaniladi. Misol uchun, quvurning uzunligi standartning butun matni davomida metrlarda; quvur devorining qalinligi - millimetrlarda; elektr kuchlanish - voltlarda ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

4.14.3 Agar standart matnida bitta xuddi o‘sha kattalik birligida ifodalangan kattalikning sonli qiymatlarini qatori keltirilgan bo‘lsa, unda kattalik birligining belgilanishi oxirgi sonli qiymatidan keyin keltiriladi.

Misol — 1,0; 1,5; 2,0; 2,5 mm

4.14.4 Agar standart matnida sonlardan keyin kattalik birligi ko‘rsatilgan bo‘lsa, unda sonlar oraliqlari “dan” va “gacha” (“dan... gacha” va “bilan birga” so‘zlarini inobatga olib) so‘zlari bilan, hamda bu sonlar o‘lchamsiz koeffitsiyentlar bo‘lsa, chiziqcha bilan yoziladi.

Agar standart matnida bitta xuddi o‘sha kattalik birligi bilan ifodalangan kattaliklikning sonli qiymatlari ko‘lami keltirilgan bo‘lsa, unda kattalik birligining belgilanishi, “%” va “°C” belgisidan tashqari, ko‘lamning oxirgi sonli qiymatidan keyin keltiriladi.

Misollar

1 ... 10 dan 100 kg gacha.

2 ... 65 % dan 70 % gacha.

3 ... 10 °S dan 20 °C gacha.

Agar sonlar oralig‘i tartib raqamlarini o‘z ichiga olsa, unda oraliqni ko‘rsatish uchun chiziqcha qo‘llaniladi.

Misol - ... 1 - 14 rasmlar.

4.14.5 Jadvallarda keltirilgan kattaliklar birliklaridan tashqari, kattalik birligini uning sonli qiymatidan ayirib qo‘yish (ularni har xil qatorlar yoki betlarga tarqatish) ga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.15 Sonli qiymatlar

4.15.1 Standartlar matnida hisob birliklari yoki kattaliklar birliklarining belgilanishi bo'lgan kattaliklarning sonli qiymatlarini raqamlar bilan, kattaliklar birliklarining belgilanishi bo'lmagan birdan to'qqizgacha (hisob birliklari) sonlari so'zlar bilan yoziladi.

Misollar

1 Har birining uzunligi 5 m bo'lgan beshta quvurlar sinovlari o'tkazilsin.

2 Bosimga sinash uchun 15 quvur tanlab olinsin.

3 ... kamida uchta namuna.

4.15.2 Kasriy sonlarni o'nli kasrlar ko'rinishida keltirish kerak, dyuymdagi o'lchamlar bundan mustasno, ularni $\frac{1}{4}$ " ; $\frac{1}{2}$ " (ammo $\frac{1}{4}$ " ; $\frac{1}{2}$ " emas) ko'rinishda keltirish kerak.

O'nli kasrlarni yozishda sonning butun qismini qasrli qismidan ajratib turuvchi vergulni nuqta bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Sonli qiymatni o'nli kasr ko'rinishida ifodalash imkoni bo'lmasa (yoki maqsadga muvofiq bo'lmasa), uni oddiy ko'rinishda, bir qatorida qiyshiq chiziq orqali yozishga ruxsat etiladi.

Misol - 5/32.

4.15.3 Kattaliklarning sonli qiymatlarini standartlarda mahsulotning talab qilinadigan xossalarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan aniqlik darajasida ko'rsatish lozim. Bunda qiymatlar qatorida verguldan keyingi belgilar sonini tekislash amalga oshiriladi.

Bir nomdagi mahsulotning turli xil o'lchamlari (markalari va shunga o'xshash) uchun kattaliklarning sonli qiymatlarini birinchi, ikkinchi, uchinchi va shu kabi o'nli belgilarigacha yaxlitlash bir xil bo'lishi kerak.

Misol - agar issiqlayin jo'valangan po'lat tasma uchun qalinligi darajalanishi 0,25 mm bo'lsa, unda tasma qalinliklarining hamma qatori o'nli belgilarining xuddi o'sha sonida ko'rsatiladi, misol uchun: 1,50; 1,75; 2,00; 2,25; 2,50 mm.

4.15.4 Mahsulotning texnik tavsifi va vazifasiga bog'liq ravishda bitta xuddi o'sha ko'rsatkich (parametr, o'lcham)ning sonli qiymatlaridagi o'nli belgilar soni bir nechta pog'onaga (guruhga) ega bo'lishi mumkin hamda faqat ushbu pog'ona (guruh) ichida bir xil bo'lishi kerak.

Sonli qiymatlar ko'lamini ko'rsatishda ham birinchi va oxirgi sonli qiymatida o'nli belgilarining bir xil soni ko'rsatilishi kerak.

4.15.5 Standartlarda ko'rsatkich (parametr, o'lcham)ning nominal qiymatlaridan chegaraviy (yo'l qo'yiladigan) og'ishlarini belgilash zarur bo'lganda, soni (nominal va chegaraviy) qiymatlari qavs ichida ko'rsatiladi.

Misol - (65±2) %, ammo 65±2 % emas.

Bunda ular bir xil kattalik birligi bilan ifodalangan bo'lsa, nominal qiymat o'nli belgilarining soni xuddi o'sha ko'rsatkich (parametr, o'lcham)ning chegaraviy (yo'l qo'yiladigan) og'ishining o'nli belgilari soni bilan bir xil bo'lishi kerak.

Misol - (7,0±0,4) kg.

4.15.6 Rim raqamlarini faqat mahsulotlarning navi (toifasi, sinfi va shunga o'xshash), kimyoviy elementlarining valentligini, yil, yarim yilning choraklarini belgilash uchun qo'llashga yo'l qo'yiladi. Qolgan hollarda sonli qiymatlarni belgilash uchun arab raqamlari qo'llaniladi.

Rim raqamlari, kalendar sanalarning sanoq sonlarining sonli qiymatlarini kelishik qo'shimchalari bo'lmasligi kerak. Kelishik qo'shimchalarini bo'lishiga faqat eritma konsentratsiyasini ko'rsatishda yo'l qo'yiladi.

Misol - 5 % li eritma.

4.15.7 Sondan ildiz topish matematik amalini radikal belgisi yoki sonning darajasi vositasi bilan tasvirlashga yo‘l qo‘yiladi, misol uchun, $\sqrt{3}$ yoki $3^{1/2}$. Bunda bitta standartda ushbu amalni belgilanishi bir xil bo‘lishi kerak.

5 Standartlarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar

5.1 Standartlar matnini rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar

5.1.1 Standartlar kompyuterda 12 o‘lchamli “Times New Roman” yoki shunga o‘xshash shriftida “Microsoft Word” matn muharririda hamda lotin alifbosida rasmiylashtiriladi.

5.1.2 Bo‘lim (kichik bo‘lim) sarlavhalari, shuningdek, bo‘lim va kichik bo‘lim sarlavhalari orasidagi masofa shriftning kamida bitta balandligiga teng bo‘lishi kerak.

Kichik bo‘limlar va bandlar sarlavhalarining qatorlari orasidagi masofa xuddi matn orasidagidek qabul qilinadi.

5.1.3 Standartlarni rasmiylashtirishda standart matni A4 formatidagi qog‘oz varag‘ining bir tomonida uning masshtabini kamaytirmasdan joylashtirilishi kerak.

Standartlarni rasmiylashtirishda matnni chap tomonidagi hoshiyasining kengligi - 3 cm, o‘ngdan - 1,5 cm, yuqori va pastdan - 2 cm bo‘lishi kerak.

Xatboshidagi chetlanish standartlarning butun matni bo‘yicha bir xil bo‘lishi va besh yoki olti belgidan iborat bo‘lishi kerak.

5.1.4 Standartlarni tayyorlashda reprografiya usullari bilan uning sifati tegishlicha bo‘lgan nusxasini tayyorlash mumkinligi ta’minlangan bo‘lishi kerak.

5.2 Standartlarning betlarini rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar

5.2.1 Standartlarning birinchi beti D ilovaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

5.2.2 Standartlarning betlarini (birinchi betidan tashqari) rasmiylashtirish va raqamlash - E ilovaga muvofiq. Bunda 5.2.4-banda ko‘rsatilganidan tashqari, barcha betlarini raqamlash arab raqamlari bilan bajariladi.

Standartlar matnini F ilovada ko‘rsatilganidek bir betda ikki tilda rasmiylashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

Standartlarning oxirgi beti G ilovada keltirilgan qoidalarga muvofiq rasmiylashtiriladi.

5.2.3 Milliy/dastlabki standartlarni rasmiylashtirishda uning hamma betlarida «O‘zMSt, DS» belgilanishi (hujjatni ro‘yxatga olish raqamisiz) keltiriladi.

Misol - O‘zMSt _____:2024;

DS _____:2024.

O‘zbekiston milliy standarti loyihasining titul varag‘i va birinchi betida “Rasmiy nashr” so‘zlari o‘rniga “Loyiha” so‘zi keltiriladi va kursiv bilan ajratib qo‘yiladi.

5.2.4 Standartlarning “So‘zboshi”, “Mundarija”, “Kirish” elementlari joylashtirilgan betlari “II” dan boshlab rim raqamlari bilan raqamlanadi.

Izoh - Standartlarning titul varag‘ini old tomonida betining raqami qo‘yilmaydi.

5.2.5 Standartlarni nashr etishga tayyorlashda “So‘zboshi” elementi keltiriladigan betning pastki qismida standartni tarqatishni amalga oshirgan organ haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Standartlarda quyidagi axborot keltiriladi: “Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli”.

5.2.6 Tarqatilishi cheklangan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan standartlarni rasmiylashtirishda O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan muvofiq qonun hujjatlariga va ular asosida belgilangan talablarga, tegishli nizomlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar va qoidalarga rioya etiladi.

5.3 Standartlarni nashr etishga qo'yiladigan talablar

5.3.1 Standartlar O'z DSt 2317 ning bosma usulida tayyorlanadigan nashrlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq nashr etiladi.

Bunda standartlar 210 x 297 mm formatda nashr etiladi. Asoslangan hollarda (misol uchun, murakkab grafik material mavjudligida) standartga katta formatdagi varaqlarni kiritishga yo'l qo'yiladi.

5.3.2 Standartlar davlat tilida (lotin alifbosida), zarur bo'lganda qo'shimcha tarzda boshqa tillarda ham nashr etiladi.

6 Standartlar mazmuniga qo'yiladigan talablar

6.1 Asos bo'luvchi standartlarning mazmuni

6.1.1 Asos bo'luvchi standartlar faoliyatning ma'lum sohasi uchun umumiy tashkiliy texnik-qoidalarning, shuningdek mahsulotni yaratish va undan foydalanish jarayonlarida fan, texnika va ishlab chiqarishning turli sohalarida o'zaro tushunish, texnik birliligi va o'zaro bog'liqligini ta'minlash, atrof muhitni muhofaza qilish, aholini hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga jarayonlar va xizmatlarning xavfsizligi va boshqa umumiy texnik talablar, meyorlar va qoidalarni belgilash zarur bo'lganda ishlab chiqiladi.

6.1.2 Asos bo'luvchi standartlar:

- faoliyatning muayyan sohasida ishlarni amalga oshirish maqsadlari va vazifalari, ushbu sohadagi standartlashtirish obektlarining tasnifiy tuzilmalari, ushbu ishlarni amalga oshirish bo'yicha asosiy tashkiliy - texnik qoidalar va shu kabilarni;

- turli hujjatlar: normativ, konstruktorlik, texnologik, loyiha, dasturiy, boshqa texnik va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash (qabul qilish) va amalga kiritishning umumiy tartibi (qoidalari)ni;

- mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil qilish qoidalarini belgilaydi.

6.1.3 Asos bo'luvchi umumiy texnik standartlar:

- fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va faoliyatning o'zga sohalarida ko'p marta qo'llaniladigan ilmiy-texnik atamalar va ularning ta'riflarini;

- turli standartlashtirish obyektlari uchun shartli harfli*, raqamli, harfli raqamli*, grafik va shunga o'xshash belgilashlar (belgilar, kodlar, nishonlar, simvollar va shu kabilar), shu jumladan kattaliklar parametrlarining (lotin, grek harflari bilan) belgilanishi, ularni o'lchamligi, o'rnini bosuvchi yozuvlarini, simvollarni va shu kabilarni;

- tabiatni muhofaza qilish va undan foydalanishni yaxshilash sohasidagi umumiy talablarni belgilaydi.

Xususan bu hujjatlar:

- o'lchashlarning (asbobli) aniqlik meyorlari va statistik baholashning aniqlik meyorlarini;

* Shartli harfli va harfli-raqamli belgilashlar davlat tili asosida berilishi, va davlat tilidagi matnda va boshqa tillardagi matnda yagona bo'lishi kerak.

- moddalar va materiallar xossalari va tarkibining standart namunalari qo'yiladigan talablarni;
- maqbul sonlar, parametrik va o'lchamlari (misol uchun, elektr tokining nominal chastotalari va kuchlanishlarining qatorlari)ni;
- joizliklar va o'tkazishlarni;
- yuzalar g'adir-budurligiga qo'yiladigan talablarni;
- uzatmalarning (tishli, tasmali va boshqa) aniqlik meyorlarini;
- detallar birikmalarining va yig'ma birikmalarining (rezbali, payvandli va boshqa) har xil turlariga qo'yiladigan talablarni;
- asbob-uskunalarining aniqlik sinflarini;
- chizmalar (sxemalar)ni chizish, yozuvlar, o'lchamlarni yozish qoidalarini;
- mahsulotlar texnik (konstruktiv, elektr, elektromagnit, dasturli, diagnostik va boshqa) moslashuvchanligining har xil turlariga qo'yiladigan talablarni;
- zararli moddalarni chiqarib tashlash va oqizishning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaraviy qiymatlari, hamda ularning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaraviy konsentratsiyasini;
- shovqin, titrash, radiatsion nurlanish, radio xalaqitlar darajasining yo'l qo'yiladigan chegaraviy qiymatlarini;
- tashqi ta'sirlarning yo'l qo'yiladigan chegaralarini;
- texnik estetika va ergonomika talablarini;
- umumiy ishlab chiqarish - texnik vazifali boshqa yagona texnik talablar va/yoki meyorlarni belgilaydi.

6.1.4 Atamalar va ta'riflar standartlari tegishli tavsiyalarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

6.2 Mahsulotlarga belgilangan standartlar mazmuni

6.2.1 Mahsulotga qo'yiladigan har tomonlama talablarni* belgilash zarur bo'lganda bir turdagi mahsulotlar guruhiga standartlarda belgilanadigan kichik sarlavhali "Umumiy texnik shartlar" ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

6.2.2 6.4.1-bandda ko'rsatilgan hollarda, aniq mahsulot uchun har tomonlama standartlarda talablarni belgilaydigan kichik sarlavhali "Texnik shartlar", 6.5.1-bandda ko'rsatilgan holda esa - bir turdagi mahsulotlarning alohida guruhi uchun umumiy bo'lgan standartlarda texnik talablarni belgilaydigan kichik sarlavhali "Umumiy texnik talablar" ishlab chiqilishi mumkin.

6.2.3 Bir turdagi mahsulotlarning bir nechta guruhlar uchun yoki yuqoriroq tasniflash guruhlar uchun umumiy bo'lgan alohida talablarni belgilash mumkin bo'lganda quyidagi talablar guruhlarini belgilovchi alohida standartlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir: atamalar va ta'riflar, tasniflash (xillari, navlari, markalari, turlari va mahsulotning boshqa guruhlarini), xavfsizlik va (yoki) atrof muhitni muhofaza qilish umumiy talablari, qabul qilish, o'rab-joylash/qadoqlash, transportda tashish, saqlash, ishlatish (qo'llash), ta'mirlash va utilizatsiya qilishga doir umumiy talablar.

Ko'rsatilgan talablar guruhlarining har biri alohida standartda ko'rsatilishi ham,

* Xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish talablarini, qabul qilish tartibi, nazorat usullari, transportda tashish va saqlashga qo'yiladigan talablarni, lozim bo'lsa, boshqa talablarni o'z ichiga olgan.

talablarning boshqa guruhlari bilan birlashtirilgan bo'lishi ham mumkin, bu esa standartning kichik sarlavhasida aks ettiriladi. Standartlashtirish obyektlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rsatilgan guruhlariga kiradigan ayrim talablarni standartga kiritmaslikka yo'l qo'yiladi.

Misollar

1 Atamalar va ta'riflar

2 Tamg'alash, o'rab-joylash/qadoqlash, transportda tashish va saqlash

3 Xavfsizlik talablari va ularni nazorat qilish usullari

Talablarning alohida guruhlariga yoki ularning birikmalariga standartlarni ishlab chiqishda 6.6 - 6.9-bandlarda bayon etilgan qoidalar hisobga olinadi.

6.2.4 Asoslangan hollarda alohida standartda bir turdagi mahsulotlar guruhi (yoki yuqoriroq tasniflash kichik guruhi) uchun umumiy bo'lgan konstruktiv talablar, asosiy parametrlar va/yoki o'lchamlar belgilanishi mumkin.

Misol - Xillari, asosiy parametrlari va o'lchamlari

6.3 Umumiy texnik shartlar standartlarining mazmuni

6.3.1 Standartlarda belgilanadigan kichik sarlavhali "Umumiy texnik shartlar"ga, odatda, quyidagi bo'limlar kiritiladi:

- tasniflash;
- texnik talablar;
- xavfsizlik talablari;
- atrof muhitni muhofaza qilish (ekologik) talablari;
- qabul qilish qoidalari;
- nazorat (sinash) usullari;
- transportda tashish va saqlash;
- foydalanish (ekspluatatsiya), texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, utilizatsiya qilish bo'yicha ko'rsatmalar;
- ishlab chiqaruvchi/tayyorlovchi kafolatlari.

6.3.2 Standartlar bo'limlarining nomlari ro'yxati (sarlavhalari), tarkibiy (tuzilishi) va mazmuni standartlashtirilayotgan mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari va unga qo'yilayotgan talablarning tavsifini hisobga olgan holda aniqlanadi. Bunda ulardan foydalanish, aholi sog'ligiga va (yoki) mol-mulkiga, shuningdek, atrof-muhitga zarar yetkazish mumkin bo'lgan mahsulotlar standartlarida, standartlashtirish obyektining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda "Texnik talablar" bo'limida, konstruktiv va boshqa texnik talablarni belgilash va ularga rioya qilish yo'li bilan xavfsizlik yoki atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini ta'minlash hollaridan tashqari, "Xavfsizlik talablari", "Atrof-muhitni muhofaza qilish talablari", "Xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari" bo'limlari majburan kiritilishi kerak.

6.3.3 "Tasniflash" bo'limida mahsulotning sinflari, xillari, turlari yoki assortimenti, shuningdek uning markalari (modellari, navlari va shu kabilar) belgilanadi.

6.3.3.1 Agar mahsulot asosiy parametrlari va/yoki o'lchamlari bo'yicha tasniflansa, unda "Tasniflash" bo'limining sarlavhasi "asosiy parametrlari va/yoki o'lchamlari" so'zlari bilan to'ldiriladi.

Bunda mahsulotni o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda:

- mahsulotning asosiy foydalanish (iste'mol) tavsiflari bo'yicha tasnifi;

- mahsulotning konstruktiv parametrlari va o‘lchamlari (shu jumladan gabarit, o‘rnatish, biriktirish o‘lchamlari) bo‘yicha tasnifi;

- mahsulotning boshqa asosiy parametrlari bo‘yicha tasnifi keltiriladi. Bu bo‘limda belgilanayotgan tasniflashning yaqqol bo‘lishi uchun, mahsulotning konstruktiv xususiyatlarini va/yoki uning asosiy parametrlarini tasvirlovchi (misol uchun, asosiy o‘lchashlari ko‘rsatilgan umumiy ko‘rinishining) grafik materiali keltiriladi.

6.3.3.2 Asoslangan hollarda mahsulot (misol uchun, prokat) geometrik shakllari va aniq o‘lchamlari bo‘yicha tasniflangan bo‘lishi mumkin.

Bunda:

- geometrik shaklini aniqlovchi rasmlar (chizmalar);
- o‘lchamlari, chegaraviy og‘ishlari, qirqimlar maydonlari, o‘qlarining ma‘lumotli o‘lchamlari va boshqa shu kabi ma‘lumotlar bo‘lgan jadvallar;
- qo‘shimcha talablar (profililar uzunligi, yuzalarning geometrik shakldan og‘ishlari) keltiriladi.

6.3.3.3 Agarda standart modda, material, xomashyo, oziq-ovqat va o‘zga o‘xshash mahsulotga tegishli bo‘lsa, unda uni kimyoviy va (yoki) fraksion tarkibi, boshqa fizik-kimyoviy xossalari, shuningdek asosiy iste‘molchilik xossalari (misol uchun, kaloriyaliligi), tayyorlash (misol uchun, to‘qilgan, eshilgan) va (yoki) ishlov berish (dudlangan, tuzlangan, pasterizatsiya qilingan va shu kabi) usullari bo‘yicha tasniflanadi.

6.3.3.4 “Tasniflash” bo‘limida mahsulotning shartli belgilanishi ko‘rsatiladi, zarur bo‘lganda esa uni yozish qoidalari va/yoki misollari keltiriladi.

Bo‘limda materiallar, ularga ishlov berish rejimlari va shu kabi tavsiyalar keltirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

6.3.4 “Texnik talablar” bo‘limiga umumiy holda, quyidagi kichik bo‘limlar kiritiladi:

- asosiy parametrlar va (yoki) tavsiflar (xususiyatlar);
- xom ashyo va materiallarga qo‘yiladigan talablar;
- butliligi;
- tamg‘alash;
- o‘rab-joylash/qadoqlash.

Agar standartlarda unga muvofiq standartlashtirilayotgan mahsulotning barcha nomlari ro‘yxati uchun umumiy bo‘lgan alohida texnik talablarni belgilash imkoniyati bo‘lmagan holda, bu talablar muayyan mahsulot uchun standartlarda belgilanadigan kichik sarlavhali “Texnik shartlar”da aytib o‘tiladi.

6.3.5 “Asosiy parametrlar va (yoki) tavsiflar (xususiyatlar)” kichik bo‘limida, odatda tayyor mahsulotni qabul qilish jarayonida, sertifikatlashtirishni o‘tkazishda, standartlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda hamda mahsulot sifati bo‘yicha iste‘molchi (buyurtmachi) bilan kelishmovchiliklar kelib chiqqan holda tekshirilishi lozim bo‘lgan talablar keltiriladi.

Agarda bu talablardan ayrimlari muayyan ko‘rsatkichlar (tavsiflar) bilan ifodalanishi mumkin bo‘lmay, qandaydir boshqa talablar (ishlab chiqarish xonalariga va bajaruvchilarga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyenik talablar; ma‘lum texnologik usullarni qo‘llash, qoplama berish, maxsus texnologik asbob-uskuna yoki uskunalarni qo‘llashga bo‘lgan talablar; zarur bo‘lgan uzoq muddatli mashqlarga bo‘lgan talablar; tayyor mahsulotlar yoki materiallarni saqlab turishga bo‘lgan talablar va shunga o‘xshash) ga bir xil rioya etish sharti bilan erishish mumkin bo‘lsa, unda bu talablar ham ushbu kichik bo‘limda keltiriladi.

6.3.5.1 “Asosiy ko‘rsatkichlari va (yoki) tavsiflari (xossalari)” kichik bo‘limiga umumiy xolda quyidagilarni belgilovchi bandlar kiritiladi:

- vazifa ko‘rsatkichlari;
- konstruktiv talablar;
- fizik-kimyoviy va mexanik xossalari;
- moslashuvchanligi va/yoki o‘zaro almashinuvchanligiga qo‘yiladigan talablar;
- ishonchlilik talablari;
- tashqi ta’sirlarga chidamliligi va yashovchanligi talablari;
- ergonomika talablari;
- xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, energiya va mehnat resurslaridan tejimli foydalanish bo‘yicha talablar (tavsiyalar);
- texnologiklik talablari;
- transportda tashish qulayligi talablari.

6.3.5.2 Vazifa ko‘rsatkichlari belgilanadigan bandda berilgan sharoitlarda mahsulotning asosiy vazifalarini bajarish qobiliyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, misol uchun, unumdorligi, aniqligi, tezligi, mustahkamligiga va boshqa qo‘yiladigan talablar keltiriladi. Oziq-ovqat mahsuloti uchun vazifa ko‘rsatkichlari o‘rniga organoleptik ko‘rsatkichlar belgilanadi.

6.3.5.3 Mahsulotga qo‘yiladigan konstruktiv talablari keltiriladigan bandda mahsulot vazifalarini samaraliroq bajarilishini ta’minlovchi muayyan konstruktiv yechimlar, shuningdek uni ratsionalligi belgilanadi. Bunda, mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi talablarni belgilash tavsiya etiladi:

- har bir mahsulot birligi yoki uning ma’lum miqdorining cheklangan yo‘l qo‘yiladigan massasi va gabarit o‘lchamlari;
- buyumning tashqi shakli (to‘g‘ri chiziqchiligi, mutanosibligi, suyirliigi) ga qo‘yiladigan talablar;
- tarkibiy qismlarining konstruktiv bajarilishi, ularning soni, massasi, shakli, o‘lchamlari, kompanovkasi;
- tarkibiy qismlarning (aylanish yo‘nalishi va tezligi, tezligi va chegaralari) bog‘lanishi va o‘zaro harakatini, ularni moslashuvchanligini va o‘zaro almashinuvchanligini ta’minlovchi konstruktiv talablar;
- qoplamalar turlarini (metall, metall bo‘lmagan, noorganik, lak bo‘yoqli va boshqa polimerli) ko‘rsatgan holda ularning turli xilini qo‘llashga qo‘yiladigan talablar, shuningdek ularning sifatiga va turli xil ta’sirlarga turg‘unligiga bo‘lgan talablar;
- texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash vaqtida buyumning ayrim tarkibiy qismlarini demontaj qilmay turib, ularga ishlov berishga doir talablar;
- texnik xizmat ko‘rsatishda xizmat ko‘rsatayotgan xodimlarning noto‘g‘ri yig‘ishi, kabellar va shlanglarni noto‘g‘ri ulashi, noto‘g‘ri yoki ruxsatsiz ulashi va boshqa shu kabi xatolarga yo‘l qo‘yishini bartaraf qilishga yo‘naltirilgan talablar;
- asosiy konstruksiyalar va asosiy buyumlardan foydalanishga qo‘yiladigan talablar;
- mahsulotga agregat yaratish va blok modul tuzishga doir talablar va shu kabilar.

6.3.5.4 Alohida bandda mahsulotning holati, kimyoviy yoki fraksion tarkibiga bo‘lgan talablar, komponentlar yoki qo‘shilmalar konsentratsiyasiga bo‘lgan boshqa talablar, shuningdek mahsulotning fizik-kimyoviy, mexanik va boshqa xossalari bo‘lgan talablar belgilanadi.

6.3.5.5 Standartlarda moslashuvchanlikning quyidagi turlariga talablar belgilanishi mumkin: funksional, geometrik, o'lchamli, biologik, elektromagnit, elektr, mustaxkamlik, dasturiy, texnologik, axborotli, metrologik, diagnostik, tashkiliy va boshqalar.

6.3.5.6 Mahsulotning ishonchliligi talablari belgilanadigan bandda berilgan samaradorlikda, berilgan vaqt oralig'ida mahsulot o'z vazifalarini bajarish bo'yicha qobiliyatini hamda texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, saqlash, transportda tashishning berilgan sharoitlarida uni saqlab turish qobiliyatini tavsiflaydigan mahsulot ishonchliligi ko'rsatkichlari va (yoki) uning xavfsizligini, uzoq muddatga chidamliligini, ta'mirlashga yaroqliligini va saqlanuvchanligining aniq qiymatlari ko'rinishidagi miqdoriy talablari keltiriladi.

6.3.5.7 Tashqi ta'sirlar va yashovchanligiga bo'lgan turg'unligi talablari belgilanadigan bandda, mahsulotni ishlatish (qo'llash), transportda tashish, saqlash jarayonida unga yondashuvchi obyektlar tomonidan, atrof muhit tomonidan ta'sir tufayli va (yoki) ta'siridan so'ng mahsulotning ishlay olish qobiliyatini ta'minlash (saqlash) ga yo'naltirilgan talablar, shu jumladan:

- mexanik ta'sirlarga (titrash, zarb, burovchi, shamol va shu kabi) turg'unligi talablari;
- iqlimiy ta'sirlarga: temperaturaning yuqori va quyi darajalariga, uning keskin o'zgarishlariga, yuqori namligiga, past atmosfera bosimiga, quyosh radiatsiyasiga, atmosfera yog'inlariga, sho'r (dengiz) tumaniga, chang, suv va shu kabilarga turg'unligi talablari;
- maxsus ta'sir etuvchi omillar (biologik, elektromagnit, radiatsion, kimyoviy (shu jumladan agressiv moddalar: gazlar, yuvuvchi vositalar, yoqilg'i, moylar, deaktivatsiya, degazatsiya, dezinfeksiya vositalari va shu kabilar)) turg'unligiga qo'yiladigan talablar;
- mahsulotni xalaqitlardan himoyalanganligini, ham xususiy ham tashqi (shu jumladan oldindan mo'ljallangan) kelib chiqishi sun'iy va tabiiy bo'lgan elektro magnit nurlanishlar, elektromagnit va ionlovchi nurlanishlardan himoyalashni ta'minlash bo'yicha talablar.

6.3.5.8 Ergonomika talablari belgilanadigan bandda mahsulot parametrlari va boshqa texnik tavsiflarini odamning antropometrik ko'rsatkichlar va fiziologik xususiyatlari bilan mos kelishini ta'minlashga yo'naltirilgan (xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning ish joylariga bo'lgan talablar, buyum va uning elementlarini odam tanasining o'lchamlariga muvofiqligi talablari) talablar keltiriladi.

6.3.5.9 Xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya va mehnat resurslaridan tejimli foydalanishga qo'yiladigan talablar keltiriladigan bandda mahsulotni ishlab chiqarish texnologik jarayoniga ham, mahsulotdan vazifasi bo'yicha foydalanish (qo'llash) tartibiga ham tegishli muvofiq qoidalar belgilanishi mumkin. Bunda quyidagi ko'rsatkichlar belgilanadi: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, elektr energiyasi, boshqa energiya manbalarining solishtirma sarfi, foydali ish koeffitsiyenti, iste'molchilik xossalari birligi hisobidan mehnat sarfi va shu kabilar.

6.3.5.10 Mahsulotning texnologikligi va (yoki) transportda tashish uchun qulayligi talablari belgilanadigan bandlarda uni tayyorlash, ishlatish, ta'mirlash va/yoki transportda tashish texnologik jarayonlariga moslashligini belgilovchi talablar keltiriladi.

6.3.6 "Xomashyo va materiallarga qo'yiladigan talablar" kichik bo'limida:

- mahsulotni tayyorlash uchun ma'lum materiallar (dastlabki mahsulotlar), xom ashyo (moddalar), yarim tayyor mahsulotlarning qo'llanilishi;
- mahsulotni ishlatish (qo'llash), ta'mirlash va uni utilizatsiya qilishda qo'llaniladigan ma'lum materiallar, moddalar va zaxira buyumlar hamda asboblarning qo'llanilishi va (yoki) qo'llanilishi cheklanishi (agar ko'rsatilgan talablar ushbu standartning "Foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar" bo'limida belgilanmagan bo'lsa);

- ikkilamchi xomashyo va sanoat ishlab chiqarish chiqindilarini qo‘llash mumkinligi yoki maqsadga muvofiqligiga oid talablar va (yoki) tavsiyalar belgilanadi.

6.3.6.1 Xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, materiallar, sotib olinadigan (tayyor) buyumlarga qo‘yiladigan talablarni bayon etishda ushbu xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, materiallar, tayyor buyumlar muvofiq kelishi kerak bo‘lgan vazifasining asosiy ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan talablar ko‘rsatilgan holda ularning qisqa, ammo aniq tavsiflari keltiriladi.

Misol - Gazli ichimliklarni tayyorlash uchun etil spirtining massaviy ulushi kamida 60 % va oliy spirtlarning massaviy konsentratsiyasi izoamil spirtiga hisoblab o‘tishda kamida 170 mg/100 cm³ suvsiz spirtga teng bo‘lgan, kamida uch yil saqlangan kon‘yak spirti qo‘llaniladi.

Agar bu talablar (tavsiflar)ni qisqa bayon etish mumkin bo‘lmasa, ular (muvofiq ravishda normativ yoki tavsiyaviy tarzda) ilovada keltiriladi.

6.3.6.2 Ushbu xomashyo, materiallar va tayyor buyumlarga tegishli bo‘lgan standartlarda o‘xshash talablar bir ma’noda bayon etilgan bo‘lsa, unda 4.8.6-bandga muvofiq ushbu standartlarga havolalar keltiriladi.

6.3.6.3 Agarda xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, materiallar yoki sotib olinadigan tayyor buyumlar farmokopeya maqolasi yoki boshqa hujjat bo‘yicha tayyorlanayotgan bo‘lsa, unda ishlab chiqilayotgan standartda ushbu standartga (hujjatga) havola keltirilmaydi, uni 6.3.6.1-bandga binoan muvofiq talablar (tavsiyalar) bilan almashtiriladi.

6.3.7 “Butliligi” kichik bo‘limida yetkazib berish butliligiga qo‘yiladigan talablar (tavsiyalar) keltirilib, unga kiruvchi buyumning alohida (yetkazib berishda mexanik ravishda bog‘liq bo‘lmagan) tarkibiy qismlari, unga zaxira qismlari, asboblari, xomashyolari, materiallar va shu kabilar, shuningdek buyum bilan birga yetkazib beriladigan (ishlatish, ta‘mirlash, dasturiy, normativ) hujjatlari ko‘rsatiladi.

6.3.8 “Tamg‘alash” va “O‘rab-joylash/qadoqlash” kichik bo‘limlarining, “Xavfsizlik talablari”, “Qabul qilish qoidalari”, “Nazorat usullari”, “Transportda tashish va saqlash” bo‘limlarining mazmuni 6.6 - 6.9-bandlarga muvofiq bayon etiladi.

6.3.9 “Foydalanish (ekspluatatsiya), texnik xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash, utilizatsiya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar” bo‘limida ma‘lum shartlarga va/yoki ishlash rejimlariga rioya qilib bajarilganda mahsulotning ishlay olish qobiliyatini (yoki samaraliroq qo‘llanilishini), xavfsizligini va ekologikligini ta‘minlaydigan, ushbu standartda belgilangan texnik talablarga muvofiq kelishini kafolatlaydigan, shuningdek ta‘mirlashdan so‘ng mahsulotning ishlay olish qobiliyatini tiklashga yordam beradigan talablar belgilanadi.

Bu bo‘limda mahsulotni ishga tushirish uchun tayyorlashga bo‘lgan asosiy talablar, ishlatish joyida uni montaj qilish tartibi, mahsulotni ishlatish va uni ta‘mirlash asosiy qoidalari, shu jumladan uzluksiz va aniqlik bilan ishlash vaqti, ishlatishning ma‘lum shart-sharoitlari va (yoki) rejimlari, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarga bo‘lgan talablar, texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlashning (kalendar, resursi bo‘yicha, texnik holati bo‘yicha va boshqalar) turlari, ularning davriyligi va hajmi, ishlatish va ta‘mirlashda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan asbob-uskuna, yordamchi materiallarga bo‘lgan talablar, shuningdek mahsulotni (agarda u atrof-muhit uchun xavf tug‘diradigan bo‘lsa) utilizatsiya qilishga bo‘lgan talablar keltiriladi.

Foydalanishning yoki saqlashning ma‘lum muddati o‘tgandan so‘ng undan foydalanish odamlarning hayotiga, sog‘lig‘iga xavf tug‘dirishi, ularning mol-mulkiga va (yoki) atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan mahsulot uchun foydalanish yoki yaroqlilik muddati bo‘yicha cheklashlar belgilanadi.

6.3.10 “Ishlab chiqaruvchi/tayyorlovchi kafolatlari” bo‘limida mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonalar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ular chiqarayotgan mahsulotning ushbu standart talablariga muvofiqligi haqidagi kafolat majburiyatlarini (jumladan kafolat muddatining aniq davomiyligini) ushbu mahsulotning texnik hujjatlari (pasport)da, uning ishlatish hujjatlarida, mahsulotni tamg‘alashda belgilaydi yoki uni yetkazib berish shartnomalarida maxsus ta’kidlab o‘tadilar.

Bunda butlovchi buyumlar va tarkibiy qismlardan foydalanishning kafolat muddatini asosiy buyumning kafolat muddatiga teng qilib belgilash bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi, shuningdek asosiy buyumni kafolat muddatidan butlovchi buyumlar va tarkibiy qismlardan foydalanishning kafolat muddatlarini davomiyligi katta yoki undan kichik qilib belgilangan hollar alohida aytib o‘tiladi.

6.4 Texnik shartlar standartlarining mazmuni

6.4.1 Bir turdagi mahsulotlarning hamma guruhiga standartlarda belgilanadigan kichik sarlavhali “Umumiy texnik shartlar”ni ishlab chiqish mumkin bo‘lmaganda yoki maqsadga muvofiq bo‘lmaganda hamda shu vaqtning o‘zida davlat miqyosida muayyan mahsulot uchun yetarli darajada batafsil, har tomonlama talablarni aniq belgilash kerak bo‘lganda kichik sarlavhali “Texnik shartlar” ishlab chiqiladi.

6.4.2 Standartlarda belgilanadigan kichik sarlavhali “Texnik shartlar” standartining bo‘limlarini nomlar ro‘yxati (sarlavhalari), tarkibi (tuzilishi) va mazmuni xuddi standartlarda belgilanadigan kichik sarlavhali “Umumiy texnik shartlar” uchun (6.3 ga muvofiq) belgilanganidek hamda standartlashtirilayotgan mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Bunda kichik sarlavhali “Texnik shartlar”da qoidaga ko‘ra “Tasniflash” bo‘limi kiritilmaydi, “Asosiy parametrlar va (yoki) o‘lchamlar” bo‘limining mazmuni esa “Texnik talablar” bo‘limida keltiriladi.

6.5 Umumiy texnik talablar standartlarining mazmuni

6.5.1 Berilgan bir turdagi mahsulotlar guruhini tasniflashni aniq belgilovchi qoidalar, ularning asosiy parametrlari va (yoki) o‘lchamlari, qabul qilish qoidalari, nazorat usullari, transportda tashish va saqlash qoidalari bir turdagi mahsulotlarning xuddi o‘sha guruhiga yoki mahsulotning yuqoriroq tasniflash guruhiga tegishli alohida standartlarda bayon etilgan bo‘lsa, unda kichik sarlavhali “Umumiy texnik talablar” ishlab chiqiladi.

Agar bir turdagi mahsulotning berilgan guruhiga mahsulotni qabul qilish, transportda tashish va saqlash qoidalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘lmasa hamda bir turdagi mahsulotning ushbu guruhiga yoki bir nechta guruhiga (yuqoriroq tasniflash guruhiga) nazorat (sinash) usullari boshqa standartda belgilab qo‘yilgan holda ham kichik sarlavhali “Umumiy texnik talablar” ishlab chiqiladi.

6.5.2 Standartlarda belgilanadigan kichik sarlavhali “Umumiy texnik talablar”ga, odatda, sarlavhalari va mazmuni bo‘yicha kichik sarlavhali “Umumiy texnik shartlar”ning “Texnik talablar” bo‘limining kichik bo‘limlariga muvofiq bo‘lgan bo‘limlar kiritiladi. Asoslangan hollarda kichik sarlavhali “Umumiy texnik talablar”ga “Tasniflash” va “Asosiy parametrlar va (yoki) o‘lchamlar” bo‘limlari kiritiladi hamda ularning mazmuni 6.3.3-bandga muvofiq bayon etiladi.

6.6 Mahsulotni tamg‘alash, o‘rab-joylash/qadoqlash, transportda tashish va saqlashga qo‘yiladigan talablarni belgilash va ularning mazmuni

6.6.1 Mahsulotni tamg‘alash, o‘rab-joylash/qadoqlash, transportda tashish va saqlashga qo‘yiladigan talablar kichik sarlavhali “Umumiy texnik shartlar” (kichik sarlavhali “Texnik shartlar”) ning muvofiq nomlari bo‘yicha bo‘limlarida yoki bir turdagi mahsulotning guruhiga yoki uni yuqoriroq tasniflash guruhiga ushbu talablarni belgilaydigan alohida standartda belgilanadi.

6.6.2 “Tamg‘alash” bo‘limi (kichik bo‘limi)da mahsulotning iste‘mol va transport tamg‘asiga quyidagi talablar belgilanadi:

- tamg‘ani qo‘yish joyi (bevosita mahsulotga, yorlig‘iga, etiketkasiga iste‘molchilik va (yoki) tashish tarasiga va shu kabi);
- tamg‘ani qo‘yish usuli (bosmaxonada bosib yozish, o‘ymakorlik va boshqalar);
- tamg‘aning mazmuni.

Bunda mahsulotni tamg‘alashda O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan hamda mahsulotni davlat tilidagi axborot bilan tamg‘alash tartibini belgilaydigan qonun hujjatlarining meyorlariga rioya etilishi ko‘rsatiladi.

6.6.3 Iste‘mol tamg‘asi mazmuniga qo‘yiladigan talablar standartda standartlashtirilayotgan mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Bunda mahsulotning tamg‘alanishi umumiy holda quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi lozimligidan kelib chiqilishi mumkin:

- mahsulotning nomi;
- ishlab chiqaruvchi/tayyorlovchi korxonaning nomi, mulkchilik shakli;
- ishlab chiqaruvchi/tayyorlovchi korxonaning yuridik va ishlab chiqarish manzili;
- mahsulotning asosiy (yoki funksional) mo‘ljallanishi yoki (lozim bo‘lganda) uning qo‘llanish sohasi;
- mahsulotning asosiy iste‘mol xususiyatlari va (yoki) tavsiflari;
- mahsulotni xavfsiz saqlash va (yoki) tashish, undan xavfsiz va (yoki) samarali foydalanish, uni ta‘mirlash, tiklash, utilizatsiya qilish, ko‘mib tashlash, yo‘q qilish (lozim bo‘lganda) qoidalar va shartlari;
- sertifikatlashtirilganligi to‘g‘risidagi axborot (mavjud bo‘lsa);
- mahsulotning sof og‘irligi, asosiy o‘lchamlari, hajmi yoki donalari soni;
- tarkibi (butliligi);
- ishlab chiqaruvchi/tayyorlovchi korxonaning tovar belgisi (tovar markasi), (mavjud bo‘lganda);
- ishlab chiqarish sanasi;
- yaroqlilik (realizatsiya qilish yoki xizmat qilish) muddati;
- mahsulot ishlab chiqarilayotgan yoki identifikatlashtirilayotgan standartning belgilanishi;
- mahsulotning shtrixli kodi (mavjud bo‘lganda).

6.6.4 Standartlarda transport tamg‘asiga qo‘yiladigan talablarni belgilashda, yuklarning belgilanishiga qo‘yiladigan umumiy talablar GOCT 14192 da, xavfli yuklarning belgilanishiga qo‘yiladigan umumiy talablar esa - GOCT 19433-3 da belgilanganligi hisobga olinadi.

6.6.5 “O‘rab-joylash/qadoqlash” bo‘limida (kichik bo‘limida) o‘rab-joylash/qadoqlash materiallariga, mahsulotni o‘rab-joylash/qadoqlash usuliga, sifatiga va shu kabi qo‘yiladigan talablar belgilanadi.

Bunda:

- qo‘llanilayotgan vositalarni ko‘rsatish bilan birga mahsulotni o‘rab-joylash/qadoqlashga (konservatsiya qilishni ham hisoblab) tayyorlash qoidalari;
- iste‘mol tarasiga hamda uni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallarga qo‘yiladigan talablar;
- transport tarasining standart turlaridan (shu hisobda ko‘p marta ishlatiladigan taradan ham) foydalanishning maqsadga muvofiqligini (yoki maqsadga muvofiq emasligini) hisobga olgan holda tashish tarasiga qo‘yiladigan talablar, shuningdek zarur bo‘lganda ГОСТ 21140 bo‘yicha muvofiq tizimni hisobga olgan holda transport tarasining o‘lchamlarini birxillashtirishga bo‘lgan talablar;
- o‘rab-joylash/qadoqlashda qo‘llaniladigan yordamchi materiallarga qo‘yiladigan talablar;
- iste‘mol tarasining birligidagi mahsulotning nominal miqdori (massasi, hajmi va boshqalar), shuningdek undan yo‘l qo‘yiladigan chegaraviy og‘ishlari;
- mahsulotni transport tarasiga o‘rab-joylash/qadoqlash usullari (joylashtirish tartibi va joylash usullari);
- taraga solinadigan hujjatlarni o‘rab-joylash/qadoqlash usullari;
- konteynerlarda mahsulot joylarining soni, paketlarning gabarit o‘lchamlari, paketdagi mahsulot joylarining sonini ko‘rsatgan holda mahsulotni transportda tashish uchun tashish paketlari, tagliklari, universal yoki maxsus konteynerlarni qo‘llash bo‘yicha talablar.

6.6.6 “Transportda tashish va saqlash” bo‘limida mahsulotni transportda tashish va saqlashda uning saqlanishini, shu jumladan xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha talablar belgilanadi.

6.6.6.1 “Transportda tashish va saqlash” bo‘limida yoki “Transportda tashish” alohida bo‘limi (kichik bo‘limi)da transport turlari (avtomobil, temir yo‘l, dengiz, havo, o‘tkazuvchi quvurli va boshqalar) va transport vositalarining turlari (yopiq yoki ochiq kuzovlar va vagonlar, sisternalar, kemalar tryumlari yoki palubalari va shunga o‘xshash) ushbu vositalarda mahsulotni mahkamlash va ustini yopish usullari, shuningdek mahsulotni maxsuslashtirilgan tashish bo‘yicha talablar ko‘rsatiladi.

6.6.6.2 Zarur bo‘lganda, tashish parametrlari (yo‘l qo‘yiladigan uzoqligi, tashish tezligi, dengiz sathidan balandligi va shunga o‘xshash), tashishda yo‘l qo‘yiladigan mexanik ta‘sirilar va iqlimiy sharoitlar, mahsulotni transportda tashish bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus talablar (tashqi ta‘sir etuvchi omillardan, shu jumladan, ortish va tushirishda zarblardan himoyalash zarurati; tashish tarasini mahsulot bilan transport vositalarida joylashtirish tartibi, tashilgandan so‘ng mahsulotdan foydalanish qoidalari, shu jumladan, manfiy temperaturada tashilgandan so‘ng mahsulotni ma‘lum sharoitlarda saqlab turish qoidalari, konservatsiyadan chiqarish tartibi va shunga o‘xshash).

6.6.6.3 “Transportda tashish va saqlash” bo‘limida yoki “Saqlash” alohida bo‘limida (kichik bo‘limida) mahsulotni saqlanuvchanligini ta‘minlaydigan saqlash sharoitlari, shu jumladan, mahsulotni saqlash joylariga bo‘lgan talablar (shiypon, usti yopiq ombor, isitiladigan xona va shunga o‘xshash) va (yoki) saqlashning alohida sharoitlariga bo‘lgan talablar (sovitish kamerasi, sovitgich va shunga o‘xshash), mahsulotni tashqi muhit ta‘siridan (to‘g‘ri quyosh nuridan, namlikdan, zararli bug‘lanishdan va shunga o‘xshash) himoya qilishga qo‘yiladigan, saqlashning temperatura rejimiga, zarur bo‘lganda qayta konservatsiyalash muddatlariga qo‘yiladigan talablar keltiriladi. Bundan tashqari mahsulotni taxlash usuli (ustma-ust, stellajlarga,

tagliklarga va shunga o'xshash), shuningdek tez buziladigan, zaxarli, olovga xavfli, radioaktiv va boshqa yashirish xavfi bo'lgan mahsulotlarni saqlashning maxsus qoidalari keltiriladi.

6.6.6.4 Mashinasozlik va asbobsozlik mahsulotlarining standartlarida iqlimiy omillarning ta'sir etishiga oid qismida transportda tashish va saqlash sharoitlari belgilanganda FOCT 15150 bo'yicha saqlash sharoitlarining muvofiq guruhi ko'rsatiladi. Vaqt o'tishi bilan iste'molchilik xossalari yomonlashishi mumkin bo'lgan mahsulotlar (oziq-ovqat mahsulotlari, attorlik - atir-upa tovarlari, maishiy kimyo buyumlari va boshqalar)ning standartlarida maksimal saqlanish muddati belgilanadi.

Mahsulotni saqlash qoidalari quyidagi ketma-ketlikda bayon etiladi:

- saqlash joyi;
- saqlash va taxlash sharoitlari;
- saqlash muddatlari; .
- saqlashning maxsus qoidalari (zarurat bo'lganda).

Misollar

1 Rezistorlar joylab o'ralgan holda (iste'mol va transportda tashish tarasida) 5 dan 30 °C gacha bo'lgan temperaturada va havoning nisbiy namligi 85 % gacha bo'lgan yopiq omboxonalarda saqlanishi kerak. Bunda rezistorlar solingan yashiklar stellajlarda joylashtirilishi va balandligi bo'yicha uch qavatdan oshirmay taxlanishi kerak. Rezistorlarni maksimal saqlash muddatini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan belgilanadi hamda texnik shartlarda va ishlatish hujjatlarida ko'rsatiladi.

2 Gipsli plitalar tashish taralarida (panjara yashiklari) yopiq omborxonalarda, qisqa vaqtda (10 sutkagacha) - shiyponlarda saqlanishi kerak. Bunda shtabellar balandligi 1,5 m dan oshmasligi kerak. Gipsli plitalarni saqlash muddati - ko'pi bilan 1 yil.

3 Shitoklarni saqlash shartlari - FOCT 15150 bo'yicha 2-guruh (c) ga muvofiq.

6.7 Xavfsizlik talablarini belgilash va ularning mazmuni

6.7.1 Mahsulotning xavfsizlik talablari alohida standartlarda (ularning nomidagi muvofiq kichik sarlavha bilan) yoki xavfsizlik talablarini ularni sinash usullari bilan birlashtiruvchi standartlarda, shuningdek kichik sarlavhali "Umumiy texnik shartlar" va kichik sarlavhali "Texnik shartlar"ning "Xavfsizlik talablari" bo'limlarida keltiriladi, ularda bu bo'lim "Atrof muhitni muhofaza qilish talablari" bo'limi va (yoki) "Texnik talablar" bo'limi bilan birlashtirilgan bo'lishi yoki unga kiritilgan bo'lishi mumkin (bu holda bo'limda xavfsizlik talablarini mavjudligi ushbu bo'limning sarlavhasida hisobga olinmaydi).

6.7.2 Agar mahsulotning qo'llanilishi texnogen halokatlar xavfi bilan, avariya, odamning hayoti, sog'lig'i uchun real yoki potensial xavf bilan moddiy zarar va (yoki) atrof muhitga zarar yetkazishi bilan bog'liq bo'lsa, unda uning uchun xavfsizlik talablari belgilanadi.

6.7.3 Standartlashtirish obyektlarining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda mahsulotning xavfsizligi talablarini belgilashda:

- elektr xavfsizligi talablari;
- yong'in xavfsizligi talablari;
- portlash xavfsizligi talablari;
- radiatsia xavfsizligi talablari;
- seysmik xavfsizlik;

- mashina va asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatishda xavfsizlik talablari, shu jumladan, xizmat ko'rsatilayotgan xodimlarning noto'g'ri xarakatlari va (yoki) asbob-uskunalar ishlashining o'z-o'zidan buzilishining oldini olishga qaratilgan talablar;

- himoya qurilmalarini qo'llashga hamda mashina va asbob-uskunalarini xavfsizligini ta'minlashga, shu jumladan xavfli qismlari va elementlariga to'siqlar o'rnatishga, harakatlanuvchi qismlariga, yurishini chegaralash qurilmasiga muhosaralar (blokirovka) va so'nggi uzgichlar o'rnatishga hamda qaytarma elementlarini mahkamlagichlari va mahkamlashni boshqa turlarini qo'llashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni o'tkazishga qo'yiladigan talablar;

- mashina va asbob-uskunalarini boshqarish qismlariga, shuningdek ularning xavfsiz ishlashini tekshirish asboblariga qo'yiladigan talablar;

- avariya haqida signal berish qurilmasiga qo'yiladigan talablar;

- xavfsizlik belgilarini qo'yishga va signal berish ranglarini* qo'llashga qo'yiladigan talablar;

- xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining (shovqin, titrash, zararli moddalar konsentratsiyasi va shu kabi) yo'l qo'yiladigan darajalarini ko'rsatgan holda ularning tavsiflari;

- xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining paydo bo'lishi yoki ta'sir etish joylarida ularni bartaraf qilish, kamaytirish va (yoki) chegaralash bo'yicha talablar;

- sanoat tozaligiga qo'yiladigan talablar keltiriladi.

6.7.4 Moddalar (materiallar) xavfsizligi talablarini belgilashda:

- zararli modda** sifatida FOCT 12.1.007 bo'yicha ularni xavfining sinfi (yoki komponent sifatida materiallarga kiruvchi zararli moddalar xavfining sinfi), uni odam organizmiga ta'sir etish tavsifi;

- ushbu moddaning yo'l qo'yiladigan cheklangan darajalari (agar u zararli moddalarga tegishli bo'lsa yoki bu moddalar ushbu materialga komponentlar ko'rinishida kiradigan bo'lsa);

- ushbu moddaning FOCT 12.1.044 bo'yicha yong'in va portlash xavfi haqidagi ma'lumotlar;

- boshqa moddalar mavjudligida yoki muayyan omillar ta'sirida, havo muhitida va (yoki) oqova suvlarda moddalar (materiallar)ning zaharli yoki yong'in va portlash xavfi mavjud birikmalarni hosil qilish qobiliyati haqidagi ma'lumotlar;

- ushbu modda (material)ni qo'llashda yoki saqlashda o'zidan-o'zi yonib ketishi yoki portlab ketishini oldini olish bo'yicha choralar;

- ushbu modda (material)ni qo'llash va saqlash joylarida yong'inni o'chirish vositalari, yong'indan himoyalash texnik vositalari va yong'in o'chirish texnikasi mavjudligiga qo'yiladigan talablar;

- ushbu modda (material)ni qo'llashda, saqlashda, transportda tashish va utilizatsiya qilishda shaxsiy va (yoki) jamoa himoyalash vositalarini qo'llash va (yoki) sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etish zaruratiga qo'yiladigan talablar;

- ushbu jarayonlarda qatnashayotgan ishlab chiqarish xodimlariga qo'yiladigan talablar;

- ushbu modda (material) ni xavfsiz qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar;

- agar ushbu modda ifloslantiruvchi, zaharli, xavfli, zararli yoki radioaktiv moddalarga tegishli bo'lsa yoki o'xshash moddalar ushbu moddaga komponentlar ko'rinishida kiradigan bo'lsa, atrof-muhitning turli obyektlarida (suv muhiti, atmosfera havosi, tuproq, yer osti, flora, ionosfera va shunga o'xshash) moddaning turg'unligi tavsiflari;

* Bunda belgilar va ranglarni FOCT 12.4.026 bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

** Agar bu moddalar zararlilarga tegishli bo'lsa.

- ushbu modda (material)ni va (yoki) uni qayta ishlash chiqindilarini zararsizlantirish, regeneratsiya qilish, qayta ishlash va (yoki) utilizatsiya qilish (ko‘mib tashlash) usullari;

- ushbu moddani (materialni) qo‘llashda (foydalanishda), transportda tashishda, saqlashda va utilizatsiya qilishda uning xavfsizligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan boshqa talablar ko‘rsatiladi.

6.8 Qabul qilish qoidalarini belgilash va ularning mazmuni

6.8.1 Bir turdagi mahsulotlar guruhi uchun yoki mahsulotni yuqoriroq tasniflash guruhi uchun umumiy bo‘lgan qabul qilish qoidalarini kichik sarlavhali “Umumiy texnik shartlar” (kichik sarlavhali “Texnik shartlar”)ning muvofiq bo‘limida yoki qabul qilish koidalariga bo‘lgan alohida standartda belgilanadi.

6.8.2 Mahsulotni qabul qilish qoidalarini belgilovchi standartga, standartning kichik sarlavhasida aks ettirilgan xuddi o‘sha mahsulot namunalarini tanlab olish usullarini va (yoki) uni nazorat (sinash), tahlil qilish usullarini belgilovchi qoidalar ham kiritilgan bo‘lishi mumkin.

Misollar

1 SANOATDA QAYTA ISHLASH UCHUN EFIR MOYLI O‘SIMLIKLARINING MEVALARI

Qabul qilish koidalarini va kichik namunalar tanlab olish usullari

2 CHIZIQLI ARMATURA

Qabul qilish qoidalarini va sinash usullari

6.8.3 Standartlarda qabul qilish qoidalarini belgilashda ushbu standartning muvofiq bo‘limida yoki kichik sarlavhali “Umumiy texnik talablar”ning alohida standartida (standartlarida) belgilangan texnik talablarga muvofiqligi uchun mahsulotni tekshirish tartibi keltiriladi. Zarurat bo‘lganda, bu standartda shuningdek xavfsizlik talablariga va (yoki) atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga muvofiqligini tekshirish tartibi belgilangan bo‘lishi mumkin.

6.8.4 Standartlarda mahsulotni qabul qilish qoidalarini belgilashda sinovlarni o‘tkazish tartibini belgilaydigan (qabul qilish-topshirish, davriy, namunaviy, sertifikatlashtirish, malakaviy, ishonchlilik va boshqa) sinash turlari ko‘rsatiladi.

6.8.5 Standartda qabul qilish – topshirish sinovlariga qo‘yiladigan talablarni belgilashda:

- to‘p o‘lchamini ko‘rsatgan holda qabul qilishga taqdim etilayotgan mahsulot to‘pini aniqlash;

- qabul qilish - topshirish sinovlarini boshlashdan oldin (zarurat bo‘lganda) mahsulotni saqlab turish vaqti;

- tekshirish turi (yoppasiga, tanlab yoki statistik);

- tekshirilayotgan parametrlar, ko‘rsatkichlar, tavsiflar va boshqa talablar ro‘yxati;

- ular tekshiruvining amalga oshirilayotgan ketma-ketligi, zarur bo‘lganda, ushbu ketma-ketlikni o‘zgartirish mumkinligi keltiriladi.

Mahsulot sifatini tanlab olishda nazorat rejasi, shu jumladan tanlanma hajmi (donabay mahsulot uchun) yoki kichik namunalar hajmi (donabay bo‘lmagan mahsulot uchun) va ularning to‘p hajmiga bog‘liqligi ko‘rsatiladi, namunalar (kichik namunalar)ni tanlab olish usullari, nuqsondorlik mezonlari va qabul qilish darajasi keltiriladi, shuningdek, yaroqsizga chiqarilgan yoki yaroqsiz mahsulotdan foydalanish tartibi belgilanadi.

Bundan tashqari, standartda qabul qilish - topshirish sinovlariga qo‘yiladigan talablarni belgilashda, sifat to‘g‘risidagi hujjat mazmuniga qo‘yiladigan talablarni va (yoki) mahsulotning qabul qilinganligini tasdiqlovchi shtamp (tamg‘a, plomba)ni qo‘yish joyini ko‘rsatish bilan birga qabul qilish natijalarini rasmiylashtirish tartibi keltiriladi.

6.8.6 Standartlarda davriy sinovlarga qo‘yiladigan talablarni belgilashda ularni o‘tkazish davriyligi, tekshirish turi va rejasi, tekshirilayotgan parametrlar, ko‘rsatkichlar, tavsiflar va boshqa talablarning ro‘yxati, shuningdek, ularning tekshiruvlari amalga oshiriladigan ketma-ketligi ko‘rsatiladi va zarur bo‘lsa, undan chetlanish mumkinligi aytib o‘tiladi. Bunda sinovlar natijalarini tan olish mezonlari, ularni hisobga olish tartibi (mahsulotni qabul qilish va ortib jo‘natishni to‘xtatib turish, nuqsonlarning paydo bo‘lish sabablarini tahlil qilish va ularni bartaraf qilishdan so‘ng qayta davom ettirish), davriy sinovlar natijalarini rasmiylashtirish tartibi keltiriladi.

6.8.7 Standartlarda namunaviy sinovlarga qo‘yiladigan talablarni belgilashda, ularni o‘tkazish zarurati kelib chiqqan hollar ko‘rsatiladi, namunaviy sinovlarni o‘tkazish dasturi keltiriladi, namunalar (kichik namunalar)ni tanlab olish usullari, shuningdek, baholash mezonlari hamda ularni o‘tkazish natijalarini rasmiylashtirish tartibi belgilanadi.

6.8.8 Standartlarda ishonchlik sinovlariga qo‘yiladigan talablarni belgilashda ularni o‘tkazish tartibi (zarur bo‘lganda davriyligini ham), ayrim ishonchlik ko‘rsatkichlarini tekshirish rejaları, ishlaymay qolish mezonlari, ishonchlik sinovlarining natijalarini rasmiylashtirish tartibi ko‘rsatiladi.

6.9 Nazorat (sinash, aniqlash, o‘lchash, tahlil qilish) usullariga qo‘yiladigan talablarni belgilash va ularning mazmuni

6.9.1 Nazorat (sinash, aniqlash, o‘lchash, tahlil qilish) usullari kichik sarlavhali “Umumiy texnik shartlar” ning hamda kichik sarlavhali “Texnik shartlar”ning alohida bo‘limida, mahsulotni ushbu standartlar har birining muvofiq bo‘limida belgilangan barcha texnik talablariga muvofiqligini har tomonlama va xolisona tekshirishni ta‘minlash uchun belgilanadi.

Agarda bir turdagi mahsulot guruhiga kichik sarlavhali “Umumiy texnik talablar” hamda ularga muvofiqligini nazorat (sinash) usullarini belgilash ehtiyoji mavjud bo‘lsa, ular kichik sarlavhali “Umumiy texnik talablar” va “nazorat qilish (sinash) usullari”ga birlashtiriladi.

6.9.2 Agar kichik sarlavhali “Texnik talablar” bir nechta standartlarda belgilangan bir turdagi mahsulotlarning bir nechta guruhlariga umumiy bo‘lgan nazorat qilish (sinash) usullarining majmuiga bo‘lgan talablarni belgilash imkoniyati mavjud bo‘lsa, bu talablar alohida standartda bayon etiladi. Bunda bir turdagi mahsulotning barcha ko‘rsatilgan guruhlarini o‘z ichiga olgan tasniflash guruhining nomi standart sarlavhasiga kiritiladi.

Misollar

1 DINAMIK NASOSLAR

Sinash usullari

2 TEXNIK SHOYI GAZLAMALAR

Sinash usuli

6.9.3 Asoslangan hollarda alohida standartda, har xil standartlarda bir turdagi mahsulotning bir nechta guruhlariga yoki yuqoriroq tasniflash guruhlariga qo‘yiladigan kichik sarlavhali “Texnik talablar”ni belgilash uchun keng qo‘llaniladigan bitta ko‘rsatkichni, bitta, ikkita yoki bir nechta nazorat (aniqlash, tahlil qilish yoki muvofiqligini sinash) usullari belgilangan bo‘lishi mumkin.

Misollar

1 OZIQ-OVQAT XOM ASHYOSI VA MAHSULOTLARI

Rux miqdorini aniqlash usuli

2 BETONLAR

Muzlashga chidamliligini nazorat qilish usullari

6.9.4 Agar bitta standartda bitta ko'rsatkichning ikki yoki undan ortiq nazorat usullari belgilanadigan bo'lsa, unda bu usullarni qo'llash bilan olingan sinash (o'lchash, tahlil qilish, aniqlash) natijalari taqqoslanuvchanligini ta'minlash (kafolatlash) ko'rsatiladi.

Agar standartda belgilangan bitta ko'rsatkichning nazorat usullari to'liq o'zaroalmashinuvchan bo'lmasa, unda ularning farqlanish va (yoki) ularning har biri vazifasining o'ziga xos xususiyatlarining tavsifi keltiriladi. Bunda nazorat usullaridan qaysi birini arbitraj yoki qiyoslash sifatida qo'llanishi ko'rsatiladi.

Agar nazoratning har xil usullari uchun ayrim talablarning mazmuni mos bo'lsa, unda hamma talablarning to'liq bayon etilishi faqat birinchi usul uchun keltiriladi, qolgan usullarni bayon etishda esa birinchi usul uchun belgilangan muvofiq talablarga havolalar keltiriladi.

6.9.5 Nazorat (sinash, aniqlash, o'lchash, tahlil qilish) usullari xolisona, aniq bo'lishi hamda ketma-ket va qayta tiklanuvchi natijalarni ta'minlashi kerak. Nazorat usullarining bayon etilishi aniq va yetarlicha batafsil bo'lishi kerak.

Har bir usulni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq holda, usulning mohiyati bayon etiladi, umumiy talablari va xavfsizlik talablari keltiriladi, undan keyin:

- nazorat (sinash, o'lchash, tahlil qilish) o'tkaziladigan sharoitlarga qo'yiladigan talablar;
- nazorat (o'lchash) vositalari, apparatura, materiallar, reaktivlar va eritmalar, shuningdek yordamchi qurilmalarga qo'yiladigan talablar;
- nazoratni o'tkazishga tayyorlanish tartibi;
- nazoratni o'tkazish tartibi;
- nazorat natijalariga ishlov berish qoidalari;
- nazorat natijalarini rasmiylashtirish qoidalari;
- ushbu nazorat usulining yo'l qo'yiladigan xatoligi belgilanadi.

6.9.6 Nazorat (o'lchash) vositalari, apparatura, materiallar, reaktivlar, eritmalar va yordamchi qurilmalarga qo'yiladigan talablarni belgilash chog'ida zarur bo'lgan standart asbob-uskunalar (sinash qurilmalari, jihozlar, apparaturalar, moslamalar, asboblari va boshqalar) va standart materiallar (reaktivlar, eritmalar)ning ro'yxati keltiriladi.

Standart asbob-uskunalar (sinash qurilmalari, apparatura, moslamalar, asboblari va boshqalar)ga va (yoki) standart materiallar (reaktivlar, eritmalar)ga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirishda ularning markalari, xillari, bajarilishining va shunga o'xshash shartli belgilanishi keltiriladi, sinash (o'lchash, tahlil qilish, aniqlash) natijalarini talab etilgan aniqligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun kerak bo'ladigan aniqlik sinfi, o'lchash ko'lami yoki boshqa aniq parametrlar va bir qiymatli tavsiflar ko'rsatiladi.

Nostandard asbob-uskunalar (sinash qurilmalari, jihozlar, apparatura, moslamalar, asboblari va shu kabilar) va (yoki) materiallar (reaktivlar, eritmalar)ni qo'llash zarurati bo'lganda standart matnida yoki uning ilovasida talab etilayotgan aniqlikda tekshirishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'lchash ko'lami, muntazam xatoligi va boshqa tavsiflarini, shu hisobda har xil tuzilish va funksional sxemalari va chizmalari yoki materiallarning texnik bayoni yoki reaktivlar retsepturasi, zarur bo'lganda esa, shuningdek asbob-uskunalar va materiallarni (reaktivlarni) tayyorlash texnologiyasiga qo'yiladigan talablarni ko'rsatish bilan ushbu asbob-uskunalar (materiallar, reaktivlarning) asosiy texnik tavsiflari ko'rsatiladi.

Misollar

1 Sinovlarni o'tkazish uchun quyidagi laboratoriya jihozlari qo'llaniladi:

- *injektor xalqasi to'liq to'ldirilishini ta'minlaydigan sig'imga ega bo'lgan mikroshprits;*
- *(90±2) °C temperaturani saqlab turish uchun yaroqli "suvli hammom" (qaynatiladigan moddani idishga solib uni qaynayotgan suvli idishga solingan qurilma);*

2 Bug'doy unidan tayyorlangan xamirning reologik xossalarini aniqlash uchun "suvli hammom"da doimiy temperaturani saqlab turuvchi termostatli ekstensograf qo'llaniladi. Ekstensograf ta'rifi A ilovada keltirilgan, ishchi tavsiflari esa quyidagi talablarga muvofiq kelishi kerak:

- yumaloqlagichning aylanish tezligi(83 ± 3) min;
- qoliplovchi qurilmaning aylanish tezligi (15 ± 1) min;
- ilgakning harakatlanish tezligi (1,45 ± 0,05) cm/s;
- diagramma blankasining harakatlanish tezligi .. (0,5 ± 0,01) cm/s.

Izoh - Ushbu talablar Brandenber ekstensografi tavsiflariga muvofiq keladi.

6.9.7 Mahsulot sinovlarini (uning xossalarini tahlil qilishni) o'tkazishga tayyorlanish tartibini bayon etishda tayyorlash operatsiyalariga, shu jumladan namunalar (kichik namunalar) olish joyi va usuliga, ularning miqdori, o'lchamlari yoki massasiga, zarur bo'lganda, ularni shakli, turi, saqlash va (yoki) transportda tashish shartlariga, hisobga olish tartibiga qo'yiladigan har tomonlama talablar belgilanadi.

Zarur bo'lganda ushbu sinovlar, aniqlashlar yoki tahlil qilishlarni o'tkazish uchun qo'llaniladigan jihozlar, apparatlar yoki boshqa asbob-uskunalarni joylashish va (yoki) birlashtirish sxemalari keltiriladi.

6.9.8 Nazorat (sinash, aniqlash, o'lchash, tahlil qilish)ni o'tkazish tartibi (uslubiyoti)ga qo'yiladigan talablarni bayon etishda qiymatlarining yo'l qo'yiladigan chegaralarini ko'rsatgan holda nazorat shartlari belgilanadi, o'tkazilayotgan operatsiyalarning ketma-ketligi (agar bu ketma-ketlik nazorat natijalariga ta'sir qilsa) ko'rsatiladi, ayrim operatsiyalarning yetarlicha batafsil ta'rifi keltiriladi.

6.9.9 Nazorat natijalariga ishlov berish qoidalarini bayon etishda hisoblash formulalari keltiriladi.

6.9.10 Nazorat natijalarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarni bayon etishda tekshirish jurnallariga (sinash bayonnomalariga) kiritiladigan ma'lumotlarni bayon etish mazmuni va ketma-ketligiga qo'yiladigan talablar belgilanadi.

6.9.11 Nazorat (o'lchash) usulining aniqligiga qo'yiladigan talablarni bayon etishda usulning yo'l qo'yiladigan xatoligi (o'lchash natijalarining noaniqligi), hisoblashlar aniqligi va ma'lumotlarni yaxlitlash darajasi ko'rsatiladi.

6.9.12 Agarda nazorat usulini qo'llashda xodimlarning hayoti va sog'lig'iga mavjud yoki bo'lishi mumkin bo'lgan xavf, moddiy zarar va (yoki) atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkinligi mavjud bo'lsa, unda nazorat usuliga qo'yiladigan talablar belgilanadi.

Nazorat usuliga qo'yiladigan talablar 6.7-bandga muvofiq bayon etiladi.

6.10 Texnologik jarayonlarning mazmuni

6.10.1 Texnologik jarayonlarda, qoidaga ko'ra, sanoatning turli tarmoqlarida qo'llaniladigan keng tarqalgan, shuningdek qurilish, qishloq xo'jaligi va transportda qo'llanishi mumkin bo'lgan texnologik jarayonlarga qo'yiladigan talablar belgilanadi. Bunday texnologik jarayonlarga metallarni payvandlash, kavsharlash, parchinlash, metallarga termik va termokimyoviy ishlov berish, polimerlarni payvandlash taalluqli bo'ladi.

Standartlarda, shuningdek, ishlab chiqarilishi ommaviy tavsifga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishning namunaviy texnologik jarayonlariga qo'yiladigan talablar ham belgilanishi mumkin.

Misol - Bosma platalarning originallari va fotoshablonlarini tayyorlashning namunaviy texnologik jarayonlariga qo'yiladigan umumiy talablar.

6.10.2 Texnologik jarayonlarda:

- ularni o'tkazishga qo'yiladigan talablar;
- atamalar va ta'riflar;
- tasnifi (misol uchun, payvandlash birikmalarining konstruktiv elementlari va o'lchamlariga bo'lgan talablarni ko'rsatish bilan birga payvandlash birikmalari bo'yicha);
- texnologik jarayonda qo'llaniladigan asbob-uskuna, moslamalar, asboblar va materiallarga qo'yiladigan talablar;
- zarur bo'lganda prinsipial texnologik sxemasini keltirgan holda ayrim texnologik operatsiyalarni bajarish ketma-ketligi;
- texnologik jarayonlardagi ayrim ishlarni bajarish usullari va (yoki) yo'llari;
- texnologik jarayonlardagi har xil turdagi ishlarni bajarishning texnologik rejimlari va boshqa meyorlarga bo'lgan talablar;
- texnologik jarayonni maqbul o'tkazish uchun rioya etilishi zarur bo'lgan joizliklar, quyimlar, chiqiqlar;
- sifatni nazorat qilish usullari;
- xavfsizlik va (yoki) atrof-muhitni muhofaza qilish talablari (o'tkazilishi texnogen falokatlar, avariya, odam hayoti yoki sog'ligi uchun mavjud yoki bo'lishi mumkin bo'lgan xavf, atrof-muhitni ifloslantirish mumkinligi bilan bog'liq bo'lgan texnologik jarayonlar uchun) belgilanadi.

6.10.3 Texnologik jarayonlarga qo'yiladigan xavfsizlik talablarini belgilashda:

- berilgan texnologik jarayon yoki uning ayrim operatsiyalarining xavfli va zararli ta'sir etuvchi omillarining (ta'sirning har birini yo'l qo'yiladigan qiymati darajalarining ham) tavsiflari;
- texnologik jarayonning xavfli va zararli ta'sir etuvchi omillarini kamaytirish va (yoki) chegaralash bo'yicha talablar;
- texnologik jarayonni (alohida operatsiyalarni) o'tkazishda shaxsiy va (yoki) jamoa himoya vositalarini qo'llashga bo'lgan talablar;
- sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etishga doir talablar;
- yong'inni o'chirish vositalariga, yong'inga qarshi texnikani, yong'inga qarshi himoya texnik vositalarining mavjudligiga qo'yiladigan talablar;
- ishlab chiqarish xodimlariga qo'yiladigan talablar;
- avariya paytida signal berish qurilmalariga, FOCT 12.4.026 bo'yicha xavfsizlik belgilari va signal berish ranglarining qo'llanilishiga bo'lgan talablar ko'rsatiladi.

6.10.4 Texnologik jarayonlarni o'tkazish paytida atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini belgilashda atrof-muhitga zararli ta'sirlarning quyidagi yo'l bilan oldini olish yoki ularni kamaytirish bo'yicha talablari keltiriladi:

- chiqindilarni qayta qo'llash;
- chiqindilar va tashlanmalarni tozalash;
- texnologik rejimlarni qo'shimcha cheklash;
- texnologik jarayonda ekologik jihatdan xavfli materiallarning qo'llanilishini cheklash;
- oqova va chiqindilarning cheklangan yo'l qo'yiladigan meyorlarini belgilash;
- avariya holatidagi oqizish (chiqarib tashlash)larni oldini olish va shunga o'xshash.

6.10.5 Texnologik jarayonlarda shuningdek:

- axborot texnologiyalarda ishlarni bajarish tartibi, usullari va meyorlari;
- axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha avtomatlashtirilgan loyihalash va boshqa ishlarni o'tkazish usullari;

- blokli-modulli loyihalash usullari;
- ishlarining har xil turlarini bajarishning boshqa usullari (yo'llari) va meyorlari (rejimlari) belgilanishi mumkin.

6.11 Xizmatlarning mazmuni

6.11.1 Xizmatlar bo'yicha quyidagi standartlar ishlab chiqiladi:

- xizmatlarning asos bo'luvchi standartlari;
- xizmatlarning sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari nomlari ro'yxatining standartlari;
- kichik sarlavhali "Umumiy talablar";
- kichik sarlavhali "Umumiy texnik shartlar";
- xizmat ko'rsatayotgan xodimlarga qo'yiladigan talablarni belgilovchi standartlar;
- xizmatlarning sifati va xavfsizligini tekshirish (baholash) usullariga doir standartlar.

6.11.2 Standartlarda belgilanadigan xizmatlarning asos bo'luvchi standartlarida:

- ma'lum doiradagi xizmatlarni (ilmiy-texnikaviy, turar joy-kommunal, bank, sug'urta, turistik-sayohat, axborot-reklama, savdo, umumiy ovqatlanish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, aloqa va shu kabilar) standartlashtirish bo'yicha asosiy qoidalar;
- atamalar va ularning ta'riflari;
- xizmatlar va (yoki) ularni ko'rsatayotgan korxonalarining tasnifi belgilanadi.

Xizmatlarga doir asos bo'luvchi standartlarning mazmuni ushbu xizmatlar sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

6.11.3 Agar ma'lum doira (xizmatlar guruhi) uchun sifati va xavfsizligi ko'rsatkichlarining umumiy meyorlarini belgilash maqsadga muvofiq bo'lmagan holda, alohida standartda ular ko'rsatkichlari nomlarining ro'yxati belgilanishi mumkin.

Bunday standartlarda:

- xizmatlar sifati va xavfsizligi ko'rsatkichlarini tanlab olish bo'yicha asosiy qoidalar hamda ushbu ko'rsatkichlar javob berishi lozim bo'lgan umumiy talablar;
- sifat (qulayligi, samaraligi, ergonomikligi, estetikligi va boshqalar) va xavfsizlik (yong'indan, kimyoviy, sanitariya, radiatsion, ekologik, mol-mulkning saqlanishi va boshqalar) ko'rsatkichlari guruhlarining nomlari, ro'yxati, shuningdek guruhlardan har birining tavsifi;
- ushbu ko'rsatkichlar asosida muayyan xizmatlarga qo'yiladigan talablar (me'yorlar)ni belgilash uchun ushbu ko'rsatkichlarni qo'llash tartibi bo'yicha ko'rsatmalar (yoki tavsiyalar) belgilanadi.

Bunda standartlarda xizmatlar uchun muayyan talablar (meyorlar) aniq belgilanadigan hujjatlarning toifasi ko'rsatilishi mumkin.

6.11.4 Bir turdagi xizmatlar guruhiga yoki xizmatlarni yuqoriroq tasniflash kichik guruhiga alohida standartda bayon etiladigan umumiy talablar belgilanishi mumkin.

Izoh - Umumiy talablar standartlarida ijtimoiy-madaniy xizmatlar uchun ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Ma'lum doirada ko'rsatilayotgan xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda, xizmatlarning umumiy talablar standartlarida:

- xizmat ko'rsatishning ushbu turini tashkil etish va xizmatlar sifatini boshqarish bo'yicha;
- xizmatlarni xizmat ko'rsatilayotgan aholini, xizmat ko'rsatilayotgan va xizmat ko'rsatayotgan korxonalarining xodimlariga, boshqa iste'molchilarning va xizmatlarni bajaruvchilarning hayoti va sog'ligiga xavfsizligi;

- xizmat ko‘rsatilayotgan aholi (korxonalar)ning mol-mulki saqlanishi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish (xizmatlarni ekologikligi);
- xizmatlarning maqsadli vazifalarga muvofiqligi;
- xizmatlarning aniq, o‘z vaqtida va (yoki) jadallik bilan bajarilishi;
- xizmatlarning majmuyiligi;
- xizmatlarning ergonomikligi va (yoki) qulayligi;
- xizmatlarning estetikligi;
- xizmat ko‘rsatish xodimlariga va xizmat ko‘rsatish madaniyatiga;
- ijtimoiy yo‘naltirilganligiga (iste‘molchilarning ma‘lum kontingentining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiqligi);
- xizmat ko‘rsatish uchun korxonaga (xonaga) va uning moddiy-texnik jihozlanishiga;
- xizmatlarning axborotligiga*;
- xizmatlarning birxillashtirilgan hujjatlariga;
- xizmatlarning sotsiologik tadqiqotlariga (laboratoriyalariga) qo‘yiladigan talablar keltiriladi.

6.11.5 Standartlarda belgilanadigan kichik sarlavhali “Umumiy texnik shartlar” moddiy xizmatlarga, shuningdek ishlab chiqarish xizmatlariga ishlab chiqiladi.

6.11.5.1 Standartda bir turdagi mahsulotlar guruhi uchun kichik sarlavhali “Umumiy texnik shartlar”ni belgilashda, unga odatda (6.3.1-bandga muvofiq) mahsulot uchun o‘xshash standartlariga kiritiladigan “Asosiy parametrlar va o‘lchashlar”, “Transportda tashish va saqlash”, “Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar” bo‘limlarini chiqarib tashlab, qolgan xuddi o‘sha bo‘limlar kiritiladi.

6.11.5.2 “Tasniflash” bo‘limida bir yoki bir nechta farqlash alomatlari bo‘yicha tasniflangan xizmatlar turlari belgilanadi, kerak bo‘lsa, ushbu alomatlarining asosiy tavsiflari keltiriladi.

6.11.5.3 “Texnik talablar” bo‘limida xizmatlarning asosiy iste‘molchilik tavsiflari (ko‘rsatkichlari) ni aniqlovchi talablar va (yoki) meyorlarning to‘liq majmui keltiriladi.

Bunda standartlarga standart talablariga rioya etilishining davlat nazoratini o‘tkazishda, xizmatlarni sertifikatlashtirish jarayonida va (yoki) ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati bo‘yicha kelishmovchiliklar kelib chiqqan holda tekshirilishi mumkin bo‘ladigan xizmatlarga qo‘yiladigan talablarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Agarda bu talablar aniq ko‘rsatkichlar va ularning qiymatlari ko‘rinishida ifodalanishi mumkin bo‘lmasa, unda standartda ko‘rsatilayotgan xizmatlarning minimal assortimenti va (yoki) xizmatlarning har birini mazmunini va (yoki) hajmini yoki ularning o‘zga tavsiflarini ochib beruvchi ta‘riflari keltiriladi.

Xizmatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, “Texnik talablar” bo‘limida alohida kichik bo‘lim (yoki band) ko‘rinishida xizmat ko‘rsatish paytida ma‘lum asbob-uskunalar, asboblar, apparatura, materiallar, xom ashyo va boshqa (transport, aloqa vositalari, boshqarish, axborotni aks ettirish va shu kabi) vositalarni qo‘llash (yoki qo‘llashni cheklash) ga nisbatan, shuningdek, xizmatlar ko‘rsatiladigan xonaga (yoki hududga) nisbatan talablar va (yoki) tavsiyalar keltirilishi mumkin. Bunda 6.3.6-bandda keltirilgan qoidalarga amal qilinadi.

* Xizmatlarning axborotligi iste‘molchini ko‘rsatilayotgan xizmat haqida to‘la, ishonchli va o‘z vaqtida axborot olishi mumkinligini nazarda tutadi.

Zarur hollarda, “Texnik talablar” bo‘limida buyurtmani qabul qilish va rasmiylashtirish, shuningdek uni berishning umumiy qoidalari keltiriladi. Bunda muvofiq hujjatlarning shakllari belgilab qo‘yilgan bo‘lishi mumkin, ular odatda standartning ilovasida keltiriladi.

6.11.5.4 Agar xizmatlarning sifati ma’lum darajada xizmat ko‘rsatayotgan xodimlarga bog‘liq bo‘lsa unda standartda “Texnik talablar” bo‘limidan keyin “Xizmat ko‘rsatayotgan xodimlarga qo‘yiladigan talablar” qo‘shimcha bo‘lim keltiriladi hamda u 6.11.6-bandni hisobga olgan holda bayon etiladi.

6.11.5.5 Xizmatlar ko‘rsatishda amalga oshirilayotgan jarayonlar yoki ularning natijalari xizmatlarning iste’molchilarini, xizmat ko‘rsatayotgan xodimlarni hayoti va sog‘ligi uchun va (yoki) atrof-muhit uchun yashirin xavf tug‘dirsa, moddiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lsa (har qanday turdagi mol-mulkga xavf tug‘dirsa), unda kichik sarlavhali “Umumiy texnik shartlar”ga “Xavfsizlik (va atrof-muhitni muhofaza qilish) talablari” bo‘limi kiritiladi hamda u 6.7-bandda ko‘rsatilgan qoidalarni hisobga olgan holda bayon etiladi.

6.11.5.6 Standartlarda belgilanadigan xizmatlarda ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini tekshirish tartibi bayon etiladigan bo‘limi “Sifatni nazorat qilish qoidalari” yoki (agarda xizmatning sifatini ushbu xizmatni ko‘rsatish natijasida olingan yoki erishilgan mahsulot sifati bo‘yicha, misol uchun, ta’mirlangan maishiy radioelektron apparaturaning sifati bo‘yicha yoki umumiy ovqatlanish korxonalarida tayyorlangan qandolat mahsulotlarining sifati bo‘yicha baholash mumkin bo‘lganda) “Qabul qilish qoidalari” sarlavhasiga ega bo‘lishi mumkin.

Standartlarda belgilanadigan xizmatlarda ushbu bo‘limni bayon etishda ko‘rsatilgan xizmatlarni texnik talablarga, zarur bo‘lganda esa, ushbu standartning muvofiq bo‘limlarida keltirilgan xavfsizlik va ekologik talablariga ham muvofiqligini nazorat qilishga imkon beradigan qoidalar belgilanadi.

Standartlarda belgilanadigan xizmatlarda “Qabul qilish qoidalari” bo‘limini bayon etishda 6.8-bandda keltirilgan alohida qoidalar qo‘llanilishi mumkin.

6.11.5.7 “Ishlab chiqaruvchining/tayyorlovchining kafolatlari” bo‘limida xizmatlarni bajaruvchilari (xizmatlarning berilgan doirasidagi korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar) O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonun hujjatlariga muvofiq ular ko‘rsatayotgan xizmatlarni ushbu standart talablariga muvofiqligi bo‘yicha, har bir muayyan xizmat uchun standartlarda kafolat majburiyatlarini belgilaydilar hamda ularni buyurtmani rasmiylashtirishda (yoki xizmat ko‘rsatish shartnomasida keltirib) iste’molchilarga yetkazadilar.

6.11.6 Xizmat ko‘rsatayotgan xodimlarga (ishchilarga) qo‘yiladigan talablarni belgilashda:

- malakasi va (yoki) kasbiy (maxsus) tayyorgarligiga;
- sog‘ligining holatiga va uni tekshirish tartibiga (tibbiy tekshiruvdan yoki ko‘rikdan o‘tkazish yo‘li bilan), jinsiga va boshqa jismoniy ma’lumotlariga;
- tashqi ko‘rinishini estetikligiga;
- so‘zlashish madaniyatiga;
- etikasiga (xushmuomalaligi, xayrihohligi, chiqishuvchanligi)ga;
- shaxsiy gigiyena qoidalari rioya qilishiga;
- xizmat ko‘rsatayotgan xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibiga va (yoki) ularning qo‘yilayotgan talablarga muvofiqligini tekshirishning boshqa shakllari va usullariga;
- ushbu muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlariga (sanitariya daftarchalari va shunga o‘xshash) qo‘yiladigan talablar keltiriladi.

6.11.7 Xizmatlar sifati va xavfsizligini tekshirish (baholash) usullariga qo‘yiladigan talablar alohida standartda yoki kichik sarlavhali “Umumiy texnik shartlar”ning alohida bo‘limida belgilanadi, asoslangan hollarda esa “Tekshirish (baholash)ni o‘tkazish qoidalari” bo‘limiga kiritiladi.

Xizmatlarning sifati va xavfsizligini tekshirish (baholash) usullariga qo‘yiladigan talablar, ushbu xizmatlarga xos bo‘lgan xususiyatlardan kelib chiqib 6.9-bandda keltirilgan qoidalarni hisobga olgan holda bayon etiladi.

Xizmatlar sifatini tekshirish uchun, odatda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

- sezgi a‘zolari orqali (ko‘pchilik xizmatlar uchun - ko‘rib) tekshirish;
- tahliliy (hujjatlarni tahlil qilish yo‘li bilan amalga oshiriladigan);
- asboblardan yordamida (fizik-kimyoviy, mikrobiologik, tibbiy-biologik tahlil);
- ekspert;
- sotsiologik.

7 Standartlarning belgilanishiga qo‘yiladigan talablar

7.1 O‘zbekiston milliy standartining belgilanishi “O‘zMSSt”, dastlabki standartning “DS” belgilanishidan, ro‘yxatga olish raqamidan va undan ikki nuqta bilan ajratib yoziladigan standartning tasdiqlash yilining to‘rtta raqamidan tashkil topadi.

Misol - O‘zMSSt 3653:2023;

DS 3650:2023.

7.2 Yangidan ishlab chiqilgan standartlarga ro‘yxatga olish raqamlarini berish ularning O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ro‘yxatga olinishiga qarab raqamlarining oshib borish tartibida beriladi. Standart bekor qilinganda uning ro‘yxatga olish raqami boshqa standartga berilmaydi, standartning bekor qilinishi uning qayta ko‘rib chiqilishi va uning o‘rniga boshqa standartning qabul qilinishi holatlari bundan mustasno. Qayta ko‘rib chiqishda, amaldagi standart o‘rniga ishlab chiqilgan yangi standartga, O‘z DSt 1.5 (4.5)da ko‘zda tutilgan hollardan tashqari, oldin amalda bo‘lgan standartni tasdiqlash yilining raqamlarini o‘zgartirilgan belgilanishi beriladi.

7.3 Agar bir nechta standartlar umumiy standartlashtirish obyektiga ega bo‘lsa hamda ularning ko‘pi ushbu standartlashtirish obyektiga qo‘yiladigan umumiy (asosiy) talablarni belgilovchi standartga bo‘lgan faqat qo‘shimcha (aniqlovchi) qoidalarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, unda bu standartlarga umumiy ro‘yxatga olish raqami va undan nuqta bilan ajratilgan har bir alohida standart uchun qo‘shimcha raqam beriladi, shu bilan birga umumiy (asosiy) talablarni belgilaydigan standartga nolinchi qo‘shimcha raqam beriladi.

Agar ushbu standartlashtirish obyektiga umumiy (asosiy) talablarni, misol uchun, aniqlash usullarini belgilash maqsadga muvofiq bo‘lmasa, unda standartlar belgilanishida nolinchi qo‘shimcha raqam qo‘llanilmaydi.

Izoh - Umumiy standartlashtirish obyektiga ega bo‘lgan standartlar umumiy sarlavha bilan ham birlashtiriladi.

7.4 Agar standart umumtexnikaviy yoki tashkiliy-uslubiy standartlari majmuiga kirsa, unda ushbu standartning belgilanishi uni ishlab chiqish paytida ushbu tizimning asos bo‘luvchi standartlari bilan belgilangan tartibda shakllantiriladi. Bunda standart belgilanishiga uning raqamli qismidan nuqta bilan ajratib qo‘yilgan standartlar tizimining bir ikki razryadli kodi kiritiladi.

Misollar

1 Mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishni tashkil qilish tizimi (MYAITT) ning nolinchi tasniflash guruhining standartlari quyidagicha belgilanadi:

O‘zMSSt 15.000:2023, O‘zMSSt 15.002:2023

2 MYAITT ning oltinchi tasniflash guruhini standartlari quyidagicha belgilanadi:

O‘zMSSt 15.601:2023

Agar asos bo‘luvchi standartlarda standartlar tizimiga kiruvchi belgilanishlarni tasniflash tartibi belgilanmagan bo‘lsa, unda yangitdan ishlab chiqilayotgan standartga ushbu tizim doirasida navbatdagi tartib raqami beriladi.

Misol - Akkreditatsiya milliy tizimining standartlari quyidagicha belgilanadi:

O‘zMSSt 16.1:2023, O‘zMSSt 16.2:2023

Izoh - Umumiy texnikaviy yoki tashkiliy-uslubiy standartlar majmuiga kiruvchi standartlar, belgilanishidan tashqari ularni 6.3-bandga muvofiq shakllantiriladigan umumiy guruh sarlavhasi bilan birlashtiriladi.

7.5 Xalqaro standartga aynan o‘xshash bo‘lgan O‘zbekiston milliy standartining “O‘zMSSt” belgilanishidan, muvofiq xalqaro (mintaqaviy) standartning (uni qabul qilish yilisiz) belgilanishi va undan ikki nuqta bilan ajratib yozilgan standartning qabul qilingan yilining to‘rtta raqamidan iborat.


Xalqaro (mintaqaviy) standart asosida qabul qilingan milliy standartning belgilanishi - O‘z DSt ISO 3185 bo‘yicha.

Misol - O‘zbekistonda 2001 yilda qabul qilingan ISO 5524:1991 xalqaro standartiga aynan o‘xshash bo‘lgan O‘zbekiston milliy standartining belgilanishi quyidagicha

O‘zMSSt ISO 5524:2023 (ISO 5524:1991, IDT).

A ilova
(normativ)

Milliy standartning titul varag'ini shakli



Milliy standartning titul varag‘ini rasmiylashtirish qoidalari

- 1 milliy standartning belgilanishi
- 2 milliy standartning toifasi
- 3 milliy standartning nomi
- 4 “Rasmiy nashr” so‘zlari. Milliy standartning loyihasida ushbu so‘zlar o‘rniga 5.2.3 ga muvofiq loyiha haqida axborot keltiriladi
- 5 milliy standartni davlat ro‘yxatiga olgan organning nomi
- 6 milliy standartni davlat ro‘yxatiga olgan organning joylashgan joyi

B ilova
(normativ)

Dastlabki standartning titul varag'ini shakli

①

②

③

④

⑤

⑥

Dastlabki standartning titul varag‘ini rasmiylashtirish qoidalari

- ① dastlabki standartning belgilanishi
- ② dastlabki standartning toifasi
- ③ dastlabki standartning nomi
- ④ “Rasmiy nashr” so‘zlari. Dastlabki standartning loyihasida ushbu so‘zlar o‘rniga 5.2.3 ga asosan loyiha to‘g‘risida axborot keltiriladi
- ⑤ dastlabki standartni davlat ro‘yxatiga olgan organning nomi
- ⑥ dastlabki standartni davlat ro‘yxatiga olgan organning joylashgan joyi

C ilova
(ma’lumot uchun)

Standartlar to‘plamining titul varag‘ini rasmiylashtirish misoli

O‘zbekiston Respublikasining milliy standartlashtirish tizimi

O‘zMSSt 1.0:2024,
O‘zMSSt 1.6:2024,

O‘zMSSt 1.1:2024,
O‘zMSSt 1.10:2024,

O‘zMSSt 1.5:2024,
O‘zMSSt 1.14:2024.

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

D ilova
(normativ)

Standartlarning birinchi betini shakli

_____ standartning belgilanishi

O'ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

_____ standartning davlat tilidagi nomi

_____ standartning rus tilidagi nomi

_____ standartning ingliz tilidagi nomi

Amalga kiritish sanasi _____
yil, oy, kun

Standart matni

Rasmiy nashr

1


E ilova
(normativ)

Standartlar (birinchisidan tashqari) betlarining shakli

matn	standartning belgilanishi
	betning raqami

F ilova
(tavsiyaviy)

Standartlar (birinchi va oxirgisidan tashqari) betlarining shakli



* Izohlovchi ma'lumotlar, "Rasm" so'zi va grafik materialni mavzuiy nomi ham davlat tilida ham rus tilida keltiriladi.

G ilova
(ma'lumot uchun)

Standartning oxirgi betini rasmiylashtirish qoidalari

G.1 Standart loyihasini tayyorlashda uning oxirgi beti 1-rasmga muvofiq rasmiylashtiriladi

BIRGALIKDA BAJARUVCHILAR		
_____	_____	_____
birgalikda bajaruvchi korxonaning rahbarini lavozimi	shaxsiy imzo	ismi, ota ismini bosh harflari, familiyasi
Rahbari, _____	_____	_____
lavozimi	shaxsiy imzo	ismi, ota ismini bosh harflari, familiyasi
Bajaruvchi, _____	_____	_____
lavozimi	shaxsiy imzo	ismi, ota ismini bosh harflari, familiyasi

G.1- rasm – Standart oxirgi betining shakli

G.2 Agar standart loyihasi TQ doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu TQ haqidagi nizomda standart loyihasi imzolanishining o'zgacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, unda TQ raisi imzosi keltiriladi.

G.3 Standartni birgalikda ishlab chiquvchi korxonada mansabdor shaxslari imzolarining ko'rsatilgan tarkibi muvofiq korxonada rahbarining qaroriga ko'ra o'zgartirilishi mumkin.

Agar standartni birgalikda ishlab chiquvchi korxonada standartlashtirish xizmati va/yoki yuridik xizmati tuzilgan bo'lsa, unda standart loyihasini ularning rahbarlari ham imzolaydi. Agarda standart loyihasi o'lchashlar birliligiga tegishli qoidalarni o'z ichiga olgan bo'lsa va standartni birgalikda ishlab chiquvchi korxonada metrologik xizmati tuzilgan bo'lsa, unda standart loyihasini metrologik xizmatining rahbari ham imzolaydi.

G.4 Agar standart loyihasi belgilangan tartibda kelishib olinishi lozim bo'lsa, unda alohida kelishib olish varag'i rasmiylashtiriladi va unda kelishish imzolari yoki loyihaning kelishib olingani haqida axborot keltiriladi.

Agar imzolarning hammasi bitta betga sig'adigan bo'lsa, kelishish imzolarini bajaruvchilar imzolari ostida keltirishga yo'l qo'yiladi.

G.5 "KELISHILDI" griflarining soni kelishilayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga muvofiq bo'lishi kerak.

G.6 Standart loyihasini xat orqali kelishib olishda "KELISHILDI" grifi ostida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: kelishib olinayotgan tashkilot (korxonaning) nomi, rahbarining lavozimi, uning familiyasi, ota ismini bosh harflari, chiqish raqami va xatni jo'natish sanasi.

G.7 Standart loyihasini imzolashda (kelishib olishda) TQ raisi imzolash (kelishib olish) sanasini ko'rsatadi.

Bibliografik ma'lumotlar

SUT 01.120

Muhim so'zlar: standart, tuzish, bayon etish, rasmiylashtirish, mazmuni, belgilanishi, texnik talablar, tamg'alash, o'rab-joylash/qadoqlash, transportda tashish va saqlash, xavfsizlik talablari

O'zbekiston standartlari instituti
direktori

G.A. Gaziyeu

Standartlashtirish ilmiy-tadqiqot
bo'limi boshlig'i

F.Sh. Ashurov

Yengil sanoat sektori boshlig'i

G.K. Bekmuhamedova

Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha
axborot sektori

M.A. Axmedova